

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash hamda naqqoshlikda
bezatish texnologiyasi mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Kasb ta'limi (amaliy san'at)
ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi

4 S guruh talabasi Ahadova
Nafisa Shodi qizi

ILMIY RAXBAR:
dots. S.S. Abdullayev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi “_____” _____ 2017
yil

Buxoro- 2017 yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	2 bet
I BOB. Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash	
1.1. Yog'och tarixi, maktablari, ustalari va ularning ijodiy faoliyati.....	6 bet
1.2. Yog'och ustaxonalarini rejalashtirish va jihozlash.....	18 bet
1.3. Yog'och materiallar va uning turlari.....	24 bet
1.4. Buyum yasash, unga naqsh kompozitsiyasi tuzish, o'yish va pardoqlash.....	36 bet
II BOB. Naqqoshlikda qalamdon va qutichani bezatish texnologiyasi	
2.1. Naqqoshlik san'ati tarixi va uning maktablari.....	45 bet
2.2. Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asoslari.....	64 bet
2.3. Ashyolarga badiiy ishlov berish.....	69 bet
2.4. Geometrik naqsh kompozitsiyalarini tuzish.....	73 bet
2.5. Naqqoshlik mashgulotlarining metodik asoslari.....	78 bet
III. Xulosa.....	80 bet
IV. Tayanch tushuncha va atamalar.....	84 bet
V. Adabiyotlar.....	90 bet
VI. Ilovalar.....	91-102 bet

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ta'limning ijtimoiylashuvi-ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilganligi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalq an'anaviy san'ati rivoji yangicha mazmun kasb etdi. Milliy merosimizni, an'anaviy milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, hunarmandlarga g'amho'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu o'z o'rnida o'zbek xalq amaliy bezak san'atiga jiddiy e'tibor berishni, ularni har tomonlama o'rganish, rivojlantirish, yosh avlodlarga san'atning sir-asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish hamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimiz, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash hamda naqqoshlikda bezatish texnologiyasini va usullarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash hamda naqqoshlikda bezatish texnologiyasining jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash hamda naqqoshlikda bezatish texnologiyasining nazariy va amaliy shakli va bajarish usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

o'quvchilarda yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash hamda naqqoshlikda bezatish texnologiyasini bajarishni o'rgatish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar va xalq ta'limi vazirliklarining

qarorlari, ko'rsatmalari, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining o'zbek xalq amaliy san'atini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalari, madaniyat va san'atga oid hukumatning qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar, o'zbek xalq amaliy san'atining milliy an'analari, buyuk olim va pedagoglar, sharq mutafakkirlarining badiiy ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari tashkil etdi.

Qo'llanilayotgan sohasi: Oliy talim muassasalari, kasb-hunar kollejlarning amaliy va tasviriy san'at yo'nalishlarida tahsil oluvchilar, hunarmand ustalar.

Amaliy san'atning tur va janrlari tub aholining zakovati, orzu-istaklari, yorqin kelajakka bo'lgan intilishlari namunasi sifatida shakllandi va rivojlandi. Ularda asrlar davomida bobolarimiz to'plagan boy tajriba va ijodiy mehnat o'z aksini topgan. Go'yoki ular asrlar qa'ridan so'zlayotgandek.

Samarqand Xiva me'moriy yodgorliklari, Buxoro zardo'zligi, Marg'ilon atlaslari, Namangan beqasami, Chust do'ppisi, Rishtonu Shahrisabz kulolchiligi, Toshkent Jo'qon yog'och va boshqalar amaliy san'atining asrlar davomida taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Amaliy san'at o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi san'at turiga aylanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng amaliy san'atni yanada rivojlantirishga, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Xalq badiiy hunarmanchiligi va amaliy san'atni davlat yo'li bilan yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Hunarmandchilikka yo'naltirilgan ko'plab kasb-hunar maktablari, litseylari va kollejlari tashkil qilinib o'z faoliyatini boshladi.

Albatta, ushbu o'quv yurtlarini yosh pedagog kadrlar bilan ta'minlash, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassislar etkazish muammosi paydo bo'ladi. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida pedagogika oliy o'quv yurtlarining yoshlarga amaliy san'at turlari bo'yicha bilim berib kelinmoqda.

Naqqoshlik – o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis to'rlaridan biridir! Binobarin xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqsh

elementlarisiz tasavvur etish qiyin. Naqsh – gul, bezak degan ma'noni anglatib, amaliy san'at asarlariga chiroy baqishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o`simlik dunyosi, xayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko`rinishlari orqali aks ettiriladi.

Naqqoshlik san'ati qadimdan insonning moddiy muxitini go`zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me'moriy obidalar, turar joy va ro`zqor buyumlari go`zallikni idrok etishimiz, ma'naviyatimiz va o`zligimizni chuqurroq anglashimiz borasida bebahodir.

Bugungi kunimizda ham xalqimizning an'analarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o`rgatishga katta e'tibor berilmoqda.

Naqqoshlik san'ati ham hunar, ham san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyoharashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san'ati asirlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko`z qorachiqiday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda, hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o`z oldida turgan mas'uliyatni bir daqiqa ham unutmazligi lozim. Xozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo`lishi aloxida axamiyatga egadir.

“Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atining yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora tadbirlari to`qrisida”gi Prezidentining Farmoni bir necha muxim, dolzarb masalalarni o`z ichiga olishi bilan birgalikda

- ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloq qilish, uni zamon talabi darajasiga ko`tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo`lida barcha sharoitlar mavjud.

Xalq amaliy san'atidan olib borilayotgan o`quv mashgulotlar bo`lajak muallimlarni har tomonlama etuk, jaqon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga, qolaversa maktab o`quvchilarini xozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan qilib tarbiyalashda muhim o`rinni egallaydi. Shuningdek bu sohada yangi o`quv rejalar, dasturlar, leksiya kurslari, o`quv qo`llanma va darsliklarni yaratish muhim ahamiyatni kasb etadi.

I BOB. Yog'ochdan qalamdon va qutichani tayyorlash

1.1. Yog'och tarixi, maktablari, ustalari va ularning ijodiy faoliyati.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg'ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro'g'zoz buyumlariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh, suyak, keyinchalik esa yog'och san'ati sekin astalik bilan o'z rivojini topdi.

Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo bo'ldi. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topib bordi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at va san'atkorlar hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan yog'och topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o'z izlanishlarining mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Hali-hanuz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon vohasida, balki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Farg'ona vodiysidagi So'x va boshqa qadimiy shahar, qishloqlardan V-VI asrlarga tegishli bo'lgan san'at asarlari topilmoqda.

Samoniylar davrida amaliy bezak san'ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och rivojlandi. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, masjid va madrasalar qurildi. Asosan pishiq g'ishtdan foydalanildi, ba'zan bino devori xam g'ishtdan, tomi-gumbazi pishiq g'ishtdan

ishlandi. Hunarmand-ustalar tomonidan binolarni ko'rkam va chidamli bo'lishligiga e'tibor qaratildi, bor bilim va kuchlarini safarbar etdilar.

«Samoniylar maqbarasi rejasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va prinsip asosida yaratilganligi aniqlandi. Maqbara me'mori amaliy geometriya va matematikadan chuqur xabardor bo'lganligi shubhasizdir, aks holda, u bunchalik go'zallik me'yorini topolmasdi. Ehtimol tasodif dersiz? Yo'q tarix taqazosi bu! Algebra faniga asos solib, logarifm, algoritm so'zlariga nomi yo'g'rilgan Muhammad Xorazmiy (787-850) me'morchilikka ta'sir ko'rsatgan, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning (870-950) amaliy geometriya sohasidagi risolalari me'morlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Koinot bo'yicha tekshirishlar olib borgan, astronomiya, geometriya va trigonometriyaga oid risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning me'morchilikka hissa qo'shgan shubhasizdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arxitektura bilan bog'liq amaliy matematika va geometriya doimo me'morlar e'tiborida bo'lgan». (Zoxidov II. III. «Me'mor san'ati» T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 27-bet).

VI-VIII asrlarning boshlariga kelib ko'shk, qo'rg'onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog'och va ganch yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang-barang bo'lishiga e'tibor qaratildi, buni Afrosiyob, Varaxsha va Yumaloqtepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi san'at asarlari, sug'diylar madaniyati bizga, o'sha davrlarda jumhuriyatimiz hududida yashagan xalqlar qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo'shni xalqlar bilan ham madaniy aloqada bo'lgan deyish imkonini beradi.

Arablar VII-VIII asrlarda ibodatxonalarni, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashladilar. Natijada san'atda sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi.

« ... arablar o'rta Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o'rni va boyligiga harab, o'z ma'budasi (xudosi) bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga

qo'yilgan. Xonadon sohibi mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog'och san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yog'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san'atni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda dov-daraxtlarni aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taveradi. (Karimov X. Usto Jodir. T., G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 6-bet).

Albatta muallifning ta'kidlab o'tganidek, Islom dini paydo bo'lgan ilk davrlarda qabr ustiga yodgorlik qo'yish ma'n qilingan. Bu kabi qonunlarga amvoiylar va abbosiylar ilk hukmronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hududida dastlab masjidlar qurdilar, qadimiy ibodatxonalarni masjidlarga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buxoroning Moh bozoridagi ibodatxonani olib ko'rishimiz mumkin. Nihoyat arxitektura va amaliy bezak san'atida, hunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Al – mantasir va Fotiddin, so'ngra ruhoniylar fatvosi bilan «Amir al-ma'man»ga atab maqbara bunyod qilindi. Keyinchalik esa Sharqning Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarida ham shu kabi yodgorliklar qurdirish rusim bo'ldi. IX-X asrlarda qurilgan, Buxorodagi Samoniylar maqbarasi shular jumlasidandir. Bu maqbara o'rta Sharqdagi eng qadimiy maqbaralardan birinchisi bo'lsa, ikkinchisi esa biz yuqorida qayd qilib o'tgan Samarqand tog'larida joylashgan Tim qishlog'idagi turli naqshu - nigorlar bilan bezab ishlangan «Arab ota» - «Amir al – ma'man» («Arablar homiysi») maqbarasidir.

1960 yil boshlariga kelib shoir va jo'g'rofiya olimi Farg'ona pedagogika institutining professori Nikoley Lionov tomonidan kashf qilingan bu maqbaraning peshtoqiga bitilgan naqshinkor arabiy bitiklardan ma'lum bo'lishicha, bu maqbara xijriy 367, melodiy 977 yillarga tegishliligi aniqlandi.

Islom dini tirik mavjudotlarni tasvirlashni qat'iy ma'n etgani tufayli tasviriy san'at rivojiga imkon bermadi, faqat amaliy bezak san'ati rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar turli tuman naqshu – nigorlar bilan bezatila boshlandi.

VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiiy hunarmandchilik keng-ko'lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san'ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi. Masalan, shu davrlarda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan bo'lsa, XI-XII asrlardan esa nash yozuvi me'morchilikda keng – ko'lamda ishlatila boshlandi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yog'och bilan bezatildi. Bu esa yog'och ni tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib berdi. ymakor ustalar bulardan tashhari uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda ham o'z san'atlarini mohirona namoyish etishdi. Ustalar tomonidan turli xil stollar, kursilar, xontaxtalar, laganlar, lauxlar, sandiqlar, qutichalar, qalamdonlar va hakkazolar yaratildi.

Chingizxon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. O'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaharlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchlari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida Jahongir Amir Temur o'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali, chek qo'ydi va xalqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, yog'ochning rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asori-atiqalari bilan o'z hissasini qo'shdi. Samarqandga yirik san'atkorlar, shoiru ulamolarni, hunarmandu ustalarni to'plab ko'plab jom'e masjidleri, madrasalar, xonaqohonlar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng, Temuriylar o'rtasida bo'lgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta'sirini o'tkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining ko'rinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, shaharlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari qo'riqla boshlandi. Monumental binolarning tarhi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jom'e masjidlari saroy tipida serhasham qilib qurildi, guzar va mahallalardagi masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar, o'yma ustunli va eshiklari ham o'yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrda kelib o'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina musavvir va hunarmandlar Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'ldilar. XVII asr oxirlariga kelib me'morchilik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa, ichki qismini koshin, tosh, ganch va yog'och bilan bezatildi. Bulardan misol qilib, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi, Buxorodagi Chorminor, Qo'qondagi Dahmai shohon asori atiqalarini keltirishimiz mumkin.

Sovet tizimi bosqinchiligi tufayli, xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatlari to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashhari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar. Keyinchalik esa o'z

uslubini, yo'nalishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo'qon kabi yirik yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi.

Xiva yog'och san'atining rivojida Ota Polvonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu maktab boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Samarqand yog'och maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi hamda o'yma yuzasining ranglanishi bilan ajralib turadi. Ijodkor ustalari Abduxofiz Jalilov, Asatillo va Nurilla Nazrullaevlardir.

Toshkent yog'och maktabining yirik namoyondalari Sulaymon Xo'jaev, Maqsul Qosimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent yog'och maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o'ymasining ko'p qavatlilikligi, o'rtacha chuqurlikda o'yilib, islimiy, geometrik, ramziy naqshlar ko'proq ishlatilishidadir.

Qo'qon yog'och maktabi ham o'ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalaridan Xaydar Najmiddinov va Qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktabning mahobatlilikligi, yirikligi, o'ymalarining chuqurligi va ko'p qavatlilikligi bilan farqlanib turadi.

Sulaymon Xo'jaev 1866 yili toshkentdagi Suzukota mahallasida yashovchi usta va duradgor Nasrulloxo'ja oilasida dunyoga keldi. Yoshlik davrida Sulaymon otasiga yordam berar, lekin ko'nglida yog'ochni o'rganishga bo'lgan istak tobora kuchayib borardi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida, so'ngra 1981 yildan esa o'sha davrdagi yog'ochning pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxo'jaevga shogirdlikka tushib yog'ochning sir-asrorlarini o'rgandi.

“Sulaymon ustozini hurmat qilar, qiyinchiliklarni sabr-chidam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan engib haqiqiy usta bo'lishga astoydil harakat qilardi. Keksa ustoz Toshpo'lat Ayubxo'jaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan estalik bo'lib qolgan asboblar yordamida Sulaymon o'zi mustaqil juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi” (S.S.Bulatov “o'zbek xalq amaliy bezak san'ati”, T., “Mehnat”, 1991, 230-bet).

Usta S.Xo'jaev 1913 yilda Sankt-Peturburg shahrida bo'lib o'tgan Butun Rossiya kasblari ko'rgazmasida naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun “Za polezniye trudi” bronza medali va diplom bilan taqdirlandi. Bundan tashhari Sulaymon Xo'jaev juda ko'plab ko'rgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xo'jaligi hunarmandchilik ko'rgazmasida, 1927 yilda xalqlar san'ati ko'rgazmasida qatnashib 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at va texnika ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi.

Usta Sulaymon Xo'jaev O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib 1932 yilda Mehnat qahramoni unvonini oldi. Yog'och san'atining Tashkent maktabi, namoyondalaridan biri, pargori ustasi S.Xo'jaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi.

Toshkent yog'ochi maktabining nomoyondalaridan yana biri Maqsud Qosimovdir. Maqsud Qosimov 1905 yil Toshkent shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Tog'asi Mirsoat Isamuhammedovdan duradgorlik sirlarini o'rgandi va 16 yoshidan duradgor bo'lib ishlay boshladi.

1935 yilda Toshkent shahrida hunarmandchilik o'quv-ishlab chiharish kombinati ochildi. Maksud mazkur o'quv-ishlab chiharish kombinatiga o'qishga kirib tez orada yog'ochga, ganchga, toshga metallga gul o'yish sirlarini o'rgandi.

Shu davrning ko'zga ko'ringan yog'och ustalaridan qo'qonlik Abdurazzoq Abduraxmonovdan islimiy, Toshkentlik Sulaymon Xo'jaevdan

pargori naqshi va Toshkentlik Nasriddin Ziyaqorievdan panjara yasash sirlarini o'rgandi.

Maqsud Qosimov keyinchalik Xalq xo'jaligi muzeyi (hozirgi Badiiy ko'rgazmalar direktsiyasi, 1933-34 yillar), Moskvadagi Butun ittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston pavilyonlarini (1937-40 yillar) jozibador qilib bezagan bo'lsa, 1940-42 yillarda qirg'izistonning Frunze (hozirgi Bishkek) shahridagi hunarmandchilik o'quv-ishlab chiqarish kombinatiga ishga taklif qilindi va nafis yog'och o'ymakorlik san'atidan yoshlarga saboq berdi.

M.Qosimov 1943 yilda Muqimiy teatri uchun 3 ta eshikni , 1943-46 yillari Navoiy teatri qurilishida ishtirok etib, ganchkorlik ishlarini hamda o'rindiqlar suyanchig'ini o'yma naqshlar bilan bezadi. Maqsud Qosimov o'ymakorlik ishlari bilan birga ma'moriy obidalarini ta'mirlash ishlarida ham ishtirok etdi. Jumladan, Povlovsev uyi (hozirgi xalq amaliy san'at muzeyi) eshik va ustalarni qayta ta'mirladi. Hozirgi kunda usta Maqsud Qosimovning yaratgan nafis asarlari Tashkent, Samarqand, Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa chet el muzeylarida doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. Usta Maqsud Qosimov 1965 yilda vafot etdi. Bugungi kunda uning ishini O.Fayzullaev, H.Qosimov, H.Rixsiev, A.Shokirov kabi shogirdlari davom ettirib kelmoqdalar.

Yog'och san'atining yirik maktablaridan biri Xiva yog'och o'ymakorlik maktabi bo'lib, xivalik ustalarning ijodi ham o'ziga xosligi, betakrorligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning namoyondalaridan biri Ota Polvondir.

Ota Polvonov 1867 yilda xivalik yog'och o'ymakor usta Polvon Abdusattorov oilasida dunyoga keldi. U bolalik davrlaridanoq yog'och san'atiga mehr qo'ydi va dastlabki saboqni bobosi usta Abdusattordan, keyinchalik esa otasi usta Polvondan oldi. Xivadagi ko'pgina binolarning darvoza, eshik va ustunlarini bezashda qatnashdi.

1934 yilda O.Polvonov ko'hna Arkni ta'mirlash ishlarida ishtirok etib naqqosh Abdullo Boltaev tayyorlagan axta yordamida ustun va eshiklarni qayta ta'mirladi. Arkdan tashhari Toshhovli, Nurillaboy saroyi va boshqa qadimiy binolarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi.

Ota Polvonov va naqqosh Abdullo Boltaev hamkorligi ko'p muvaffaqiyatlarga olib keldi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan San'at ko'rgazmasida Ota Polvonning Abdullo Boltaev tayyorlagan naqsh andozasi asosida o'ta nafis, yuksak mahorat va did bilan ishlangan o'yma ustuni yuksak baholandi. 1940 yildan boshlanib 7 yil maboynida bunyod etilgan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi katta akademik opera va balet teatri binosining Xiva zalida foyelari uchun eshiklarni jozibador va go'zal naqshu nigorlar bilan bezadi. 1952 yilda esa Urganch vakzali uchun 2 va 4 tabaqali eshiklarni, badiiy ko'rgazmalar direktsiyasi uchun eshik va ustunlarni yog'och ning Xiva uslubiga xos betakror naqsh kompozitsiyalari bilan bezadi.

Ota Polvonov umrining oxirigacha yog'och ning Xiva maktabi rivojiga beqiyos xissa qo'shdi. U 1972 yili 105 yoshida vafot etdi. O.Polvonov bezagan asori-atiqalar o'zining nafisligi o'ziga xosligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. U o'zi egallagan san'at sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatib keldi. Uning shogirdlaridan biri Safo Boqbekovdir.

Safo Boqbekov 1904 yilda xivalik yog'och o'ymakor usta Bog'bek Abdurahmonov oilasida tavallud topdi. U dastlabki yog'och san'ati sir-asrorlarini otasi B.Abdurahmonov, keyinchalik esa o'sha davrning mashhur yog'och ustasi Ota Polvonovdan o'rgandi. U ustozlari O.Polvonov hamkorligida ko'plab yog'och ishlarini amalga oshirdi. Jumladan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy teatri va Urganch temir yo'l vakzalida hamkorlikda ish olib bordi.

S.Boqbekov 1970 yilda "o'zbekiston" teploxodi ichki bezaklari uchun 8 ta turli namoyonlar, 1974 yili Urganchdagi "Inturist" mehmonxonasining tantanalar zali uchun 2 ta devoriy namoyonni an'anaviy islamiy o'yma naqsh

san'ati bilan bezadi. Ko'plab jamoat va turar joy binolari uchun o'yma eshiklar, ustunlar, darvozalar va uy-ro'zg'or buyumlaridan quticha, lavh, xontaxta, kursi va boshqa bir qator buyumlar tayyorladi. Xiva shahradagi ko'plab me'moriy obidalarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi. o'z faoliyati davomida bir qator shogirdlar etishtirdi. Safo Boqbekov 1978 yili vafot etdi.

Respublikamizda keng-ko'lamda rivojlangan yog'och o'ymakorlik maktablaridan yana biri qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabidir. o'yib bajarilgan san'at asarining monumentalligi, yirikligi, o'ymalarining chuqurligi, ko'p qavatligi, o'yilgan yuzaning faqat yuziga to'qroq rang berib keyin moylash qo'qon maktabiga xos bo'lib, uning rivojida H.Najmiddinov, q.haydarov, B.Ahmedov va h.Umarovlarning xissasi beqiyosdir.

Haydar Najmiddinov Qo'qon shahrida 1850 yili usta Najmiddin oilasida dunyoga keldi (11-rasm). U yog'och sir-asrorlarini otasidan o'rgandi va qo'qon yog'och maktabining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdi. H.Najmiddinov 1890 yillardan qo'qonda o'yma naqshli eshiklar va ustunlar yaratgan, binolarning sharafa, muharnaslarini bezashda, musiqa asboblari badiiy ishlov berishdagi mohirligi bilan shuhrat qozongan. U "Parang" ("ustasi parang") laqabini olgan mohir usta edi. Yog'och da qo'llaniladigan naqsh turining pargori usulidan keng ko'lamda foydalanib u yasagan uy-ro'zg'or buyumlaridan ko'p qirrali kursilar, lavh va qutichalarning o'ziga xosligi, jozibadorligi hamda go'zalligi bilan ajralib turadi.

Haydar Najmiddinov yaratgan yog'och o'ymakorlik buyumlari bugungi kunda Xalq Amaliy san'ati, San'at va boshqa muzeylarda doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. U 1921 yilda vafot etdi. H.Najmiddinov o'zining yuksak mahorati va betakror san'ati sirlarini bir qator shogirdlariga o'rgatdi. qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri qodirjon haydarov shular jumlasidandir.

Qodirjon haydarov 1899 yili qo'qonlik atoqli naqqosh haydar Najmiddinov oilasida dunyoga keldi. U dastlabki yog'och san'atini otasidan

o'rgandi. qodirjondagi bolalikdan san'atga bo'lgan ishtiyoq asta-sekin unga yog'och sir-asrorlarini qunt bilan o'rganishga, sabr-toqatli bo'lishga o'rgatdi. U o'zi mustaqil ravishda uy-ro'zg'or buyumlari, qutichalar, stol, kursi va xontaxtalarni nafis va bejirim qilib bezab el e'tiboriga tushdi. q.haydarov dastlab 1923 yilda Moskvada xalq xo'jaligi ko'rgazmasida xizmat qildi. U uy-ro'zg'or buyularini pargori naqshlari bilan nafis qilib bezagan bo'lsa, u mahobatli yog'och da esa islimiy naqshlaridan foydalandi.

1925-29 yillarda qo'qondagi Narimonov nomidagi internatda to'garak rahbari, 1929-31 yillarda o'qishni davom ettirdi. 1933-54 yillarda "Yangi ma'dan" artelida duradgor, yog'och o'ymakori va 1954-57 yillarda esa qo'qon muzeyida ta'mirlovchi bo'lib ishladi. U o'zining faoliyati davomida ko'plab eshik, ustun, kursi, xontaxta, quticha va boshqa turli buyumlarni yog'och bilan go'zal va jozibador qilib bezab shuhrat qozondi.

Bugungi kunda qodirjon haydarov qoldirgan qo'qon tarixi muzeyidagi kravat, Toshkentdagi tarix (avvalgi Lenin markaziy muzeyining Toshkent filiali) muzeyining eshigi, Xalqlar do'stligi saroyining eshigi va boshqalar uning o'ymakorlik san'ati an'analarini yangi motivlari bilan boyitganini ko'rsatdi. qodirjon haydarov 1963 yildan o'zbekiston Xalq rassomi, 1970 yili Respublika Xamza mukofoti sovrindori, bir necha ordenlar sohibi bo'lgan. Yog'och ning islimiy va pargori ustasi, ajoyib san'at sohibi q.haydarov 1983 yil qo'qon shahrida vafot etdi.

"Samarqand yog'och maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'ymalarining juda mayda o'yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi, ya'ni geometrik, o'simliksimon va gulli girih kompozitsiyalari hamma zamin va releflarini laklashdan boshlanadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog'ochlari ishlatiladi". (S.S.Bulatov. "o'zbek xalq amaliy bezak san'ati". – T.: "Mehnat", 1991, 237 bet.)

Mazkur yog'och maktabning yirik namoyondalari Abduhoviz Jalilov va Nurilla Nazrullaevlardir.

Abduhoviz Jalilov (1869-1954) duradgorlik, yog'ochsozlik va yog'och san'ati ustasi nomi bilan xalq orasida tanilgan. U dastlab usta Ne'matdan hunar o'rgangan. Sinchli uy qurish, eshik va sandiqlarga bezak berish sir-asrorlarini puxta o'rgangan. A.Jalilov usta Fayzulla va usta Abduqodir Boqievlar bilan hamkorlikda ishlab, ulardan muharnas va girih tuzishni o'rgangan. Kalantarov uyining murakkab shaklli shifti, Xo'ja Ahror masjidining shifti va Xo'ja Yusuf masjidini qurib, ulardagi duradgorlik, yog'ochsozlik va yog'och ishlarini bajargan.

Samarqand yog'och o'ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri Nurilla Nazrullaevdir. U 1870 yili samarqandlik usta Nazrulla oilasida tavallud topdi. N.Nazrullaev dastlabki yog'och o'ymakorlik sabog'ini otasidan o'rgandi. Keyinchalik o'zining tinimsiz mehnati, izlanishlari natijasida xalq orasida o'ymakor usta sifatida shuhrat qozondi. U eshik va darvozalarni nafis va yuksak mahorat bilan bezar ekan, naqshning islamiy va pargori usullaridan keng-ko'lamda foydalanda. Pardoqning choka va pax turlarini qo'llab o'ziga xoslikka erishdi.

N.Nazrullaev Butunittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasining o'zbekiston paviloniga ikki tabaqali dilali eshikni o'yima naqshlar bilan bezadi va uning mazkur ishi yuksak baholandi. Nurilla Nazrullaev 1939 yilda vafot etdi.

1.2. Yog'och ustaxonalarini rejalashtirish va jihozlash.

Kishining ruhiy holati o'zi bajarayotgan ishida, yumushida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning jihozlanishi, qulayligi, ozoda va orastaligi muhim ahamiyatga ega. Yog'och ustaxonasini jihozlashda duradgorlik ustaxonalarini jihozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda qisman bo'lsada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir asbob-uskunalar, xomashyolar, ko'rgazmali qurollar, talabalarning tayyor ishlari va dastgohlar tartib bilan o'z joyiga qo'yilmog'i lozim.

Yog'och ustaxonasi binoning birinchi qavatiga joylashishi, unga yorug'lik yaxshi tushib turadigan bo'lishi lozim. Ustaxonaning yarim podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqtai nazardan qat'iy ma'n qilinadi. Ustaxona uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri unga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishining ta'minlanishi, xonaning isitilishi va tabiiy shamollatishga qulay bo'lmog'i zarur. Eng muhimi ustaxonada havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.

Zamonaviy o'quv ustaxonalari materiallar, yarim tayyor va tayyor buyumlar, shuningdek asbob-uskunalar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'lmog'i lozim. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatadigan bo'lishi, normal tabiiy va sun'iy yoritkichlarga ega bo'lishi, havo bosimi qishda 14° - 16° S, yozda esa 20° S dan oshmasligi kerak.

Yog'och ustaxonasining devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan, shifti esa oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bularning barchasi xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatidan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar xona jihozlarining, ishlanayotgan buyumlarning turli qismlari bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Yog'och ustaxonalaridagi shovqin-suron va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng ratsional mehnat va hunar usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'ymakorlik ustaxonalarida asbob-uskunalarin joylashtirish vaqtida yong'inga harshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va gigienik talablarga rioya qilish zarur, ya'ni ustaxona asbob-uskunalar va yordamchi jihozlar bilan to'ldirib yuborilmasligi kerak. Har bir ustaxonada meditsina aptechkalari bo'lishi shart. Agar biror talaba havfsizlik qoidalariga rioya qilmagan holda jarohatlansa unga zudlik bilanbirinchi yordam ko'rsatilishi, qon ketayotgan bo'lsa uni to'xtatish uchun jarohatlangan joyning yuqori qismidan bog'lab qo'yish va tezda yaqin oradagi tibbiy yordam yordam ko'rsatish bo'limiga olib borish zarur.

Yog'och ustaxonalarida dastgohlar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan normativlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlarning oxirgi qatori bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa 0,5 metr bo'lishi kerak.

O'ymakorlik ustaxonalarida bevosita talaba va o'qituvchi foydalanadigan maydon 50-60 m² bo'lsa, har bir talabaning ish o'rni bir-biridan 60 sm, qatorlar oralig'i 1 metrdan uzoqlikda bo'lsa yanada harakatlanish qulay bo'ladi.

Ustaxona uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri ham shundan iboratki, xonaga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishiga alohida e'tibor berish lozim. Agarda buning iloji bo'lmasa kunduzgi yorug'lik lampalari yoki stol lampalari bilan ta'minlashni taqazo etadi. Bundan tashhari yog'och ustaxonalarini isitilishi va shamollatilishiga ham e'tibor haratish kerak.

Yog'och ustaxonalarida yong'in havfsizligiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki yog'ochdan chiqqan qirindilar va payraxalar tez yonadi. Shuning uchun elektr isitkich asboblari va elektr plitalariga maxsus belgilangan joy bo'lishi shart. Yog'och ustaxonalarida ishni to'g'ri tashkil qilishda, albatta o't o'chirish inventarlari bilan jihozlangan bo'lishni talab etadi.

Ustaxonada qo'l yuvish, shuningdek ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi maksadga muvofiq bo'ladi.

Yog'och ustaxonalarining maydonidan oqilona va unumli foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri va o'z joyida turishini ta'minlash, estetika talablariga rioya qilish hamda namunali tartib – bularning hammasi talabalarni intizomlilikka va barcha asbob-uskunalarni, ko'rgazmali qurollarni, jihozlarni, dastgohlarni ehtiyot qilishga, o'zgaralar mehnatini qadrlash ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Shu va shu kabilarni amalga oshirishda o'qituvchining o'zi talabalarga o'rnak bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchining ish o'rni tashqi ko'rinishi va tashkil etilishi jihatidan namunali bo'lishi kerak. Ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollar talabalarga yaxshiroq ko'rinishi uchun o'qituvchining ish o'rniga taalluqli bo'lgan barcha narsalar yuqoriroq joyda turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Narsalarni ko'rsatib turadigan dastgoh talabalarga haratilgan bo'lishi kerak. Bu esa ularning ko'rsatilayotgan ish usullarini yaxshiroq idrok qilishlarini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali qurollar uchun mo'ljallangan burchakda plakatlar, jadvallar, chizmalar, asbob-uskunalar, buyumlar, hajmdor qo'llanmalar namunali tartibda va sistemali ravishda saqlanishi kerak. Mavjud ustaxonalarning ko'pchiligi yuqorida aytib o'tilgan talablarga to'liq javob bera olmasligini hisobga olib yog'och yoki mehnat o'qituvchisi bu talablarni bilishi va ularni so'zsiz bajarilishiga harakat qilishi zarur.

O'ymakorlik asbob-uskunalari va ularni ishchi holatga tayyorlash.

Yog'och ustaxonalarida talaba turli yumushlarni bajarishiga to'g'ri keladi. Jumladan, chizmachilik, naqqoshlik, duradgorlik, o'ymakorlik va hakkazo ishlarni tashkil etishda jarohatsiz faoliyat ko'rsatishga erishmoq uchun avvalo asbob-uskunalarni ishchi holatini ko'zdan kechirib chiqmoqlikni taqazo etadi. "Men bu moslamada ishlamoqdaman" deb ikkinchi moslamaga e'tiborsizlik turli ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiharishi mumkin.

Faoliyatni boshlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Turli asboblardan bilan ishlashda, masalan, o'ymani bajarish uchun iskana va bolg'ani (yog'och to'qmoq, kiyankani) ushlash qoidalariga amal qilgan holda, ya'ni iskanani bo'shroq, bolg'ani esa qattiqroq siqib ushlash zarur.

Yog'och da taxtachalarni o'ymaga tayyorlab olingach unga moslab axta (ulgi, nusxa) sini va xokani tayyorlab olinadi. Naqshning har bir elementini, qismini, turini, guruhini o'yishda "Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga" tamoyiliga rioya qilib borish lozim. Naqshlarning qanaqa guruhga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga harab, dastlab naqshning yarim gajak, gajak, gullari, barglari, novdalari va bandlari baliq sirtli iskana bilan kesiladi. Naqshlar atrofi to'liq kesib bo'lingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini o'yilib chuqurlashtiriladi. Tekislashda esa to'g'ri iskanalar ishlatiladi.

O'ymani bajarish davomida har bir iskanani ehtiyotkorlik bilan o'z o'rnida va o'rinli ishlatishni o'rganish lozim. Bu esa o'yilayotgan yuzani sifatli, ko'rkam va jozibador chiqishiga zamin yaratadi. Iskanalarni ishlatib bo'lgach noto'g'ri joyga qo'yish, bir-biriga urintirish asbobni tezda o'tmas bo'lishiga olib keladi va o'ymani sifatiga putur etkazadi.

Ish jarayonida ba'zi bir asboblardan o'tmaslashib qoladi. Bunday hollarda albatta asboblarni o'tkirlab olish kerak. Chunki o'tmas asbob bilan bajarilgan o'ymakorlik ishlari sifatsiz chiqadi, ko'ngildagidek bo'lmaydi.

O'tmaslashib qolgan o'ymakorlik asboblarini o'tkirlash uchun charxlar va qayroq tosh kerak bo'ladi. Yog'och da ishlatiladigan iskanalarni charxlash elektrik charxlarda yoki qo'l charxlari yordamida amalga oshiriladi. Elektrik charxlar yordamida o'tkirlashda o'ziga xos texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur.

O'ymakorlik asboblarini qo'lda qayroq toshlar yordamida o'tkirlash uchun har xil qayroq toshlari ishlatiladi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, kesuvchi asbob-uskunalarni qayroq toshlarda o'tkirlash hamisha ijobiy natija

beravermaydi. Chunki, asbob tig'ini qayroq toshga ishqalash jarayonida kuchli ishqalanish hosil bo'ladi va tig' qizishi natijasida tig' kuyada, undan suv qochadi. Asbobni ishlatish vaqtida tig' ozgina ehtiyotsizlik natijasida yoki o'yilayotgan buyum yuzasidagi kichkina ko'zga tegishi oqibatida tig' o'tmaslashadi, qo'polroq hatti-harakat tufayli sinishi, iskanani ishdan chiharishi ham mumkin.

Asbob-uskunalarni elektrik charxlar yordamida bo'lsin yoki qo'l charxlari yordamida bo'lsin, usta iskanani charxlash vaqtida o'ng oyog'ini charxning to'g'risiga, chap oyog'ini bir oz yon tomonga qo'ygant holda o'ng qo'li bilan iskana dastasidan ushlab, chap qo'l barmoqlari bilan iskananing tig'ini charxga bir me'yorda bosib charxlanadi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, agarda iskanalar qo'l charxlari yordamida charxlanadigan bo'lsa charx toshlarini aylantiruvchi shogird charx toshlarini bir me'yorda aylantirmog'i lozim. Iskanalar elektrik charxlar yordamida charxlanadigan bo'lsa o'rtacha tezlikda aylanadigan elektr motorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar elektr motorining aylanish quvvati yuqori bo'lsa charxlanayotgan asbob-uskunalarni kuydirib tezda yaroqsiz holga keltirishi mumkin.

Charxlangan iskananing qirovini to'kish uchun nova shaklidagi o'rtasi ariqchali va yonlari qirrali turli xil mayin qumli yoki tosh qayroqlar yordamida qirovidan tozalanadi. Yana shunga alohida e'tibor berish kerakki, iskanalarning qirovini to'kish vaqtida iskana tig'ini qayroq toshning uzunasiga bir maromda surtish kerak. Agar qayroq toshlar suvda namlanib ishlatilsa tig'dagi qirov tez to'kiladi.

O'tkirlangan asbobning qay darajada o'tkir bo'lganligi yoki bo'lmaganligini qirovi to'kilgan asbobning tig'ini bosh barmoq tirnog'ining yuziga tegizib ko'rib aniqlanadi. Tig' qirrasini tirnoq yuziga qadalsa unda asbob o'tkirlangan bo'ladi. Agarda asbob tig'i tirnoq yuzidan sirg'alib ketsa u holda asbob hali o'tkirlanmagan bo'ladi.

O'ymakorlik ishlarining qay darajada sifatli, jozibador va ko'rkam chiqishi hamda ishning samaradorligi o'yuuvchi asboblarga bog'liq ekan, demak asboblarni saqlashga ham alohida e'tibor berish kerak. O'tkirlangan iskanalarni maxsus tayyorlangan qutichalarga yoki g'iloflarga ehtiyotkorlik bilan terib, tig'ini bir-biriga tegmaydigan qilib joylash lozim. Agar quticha yoki g'ilof bo'lmasa biron-bir mato orasiga qo'yib o'ralgan holda ehtiyotlab saqlash kerak.

1.3. Yog'och materiallar va uning turlari

Qadimdan har xil yog'och materiallardan turli maqsadda foydalanib kelingan. Duradgorlik, yog'ochsozlik, mebelsozlik, qurilish, kemasozlik va boshqa qator kasb-sohalarda yog'ochlardan keng ko'lamda shu sohaga mos keladigan yog'ochlar saralanib, undan ajoyib san'at asarlari, inshootlar, me'moriy obidalar bunyod etilgan. Yog'och da ham o'ymakor ustalar yog'ochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganib chiqqanlaridan so'nggina yog'ochni o'yib naqsh ishlaganlar.

Yog'och mashg'ulotlarida o'ymakorlikda foydalaniladigan yog'och materiallari, ularning turlari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, zahiralari va boshqalarni bilish talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Yog'och materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom-ashyo hisoblanadi. Chunki, binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda va yog'och da asosiy xom-ashyo sifatida ishlatiladigan yog'ochlar turli daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, yog'ochlik, shoxlar, tolalar va po'stloqlardan tuzilgan. Yog'och xom-ashyosi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) tabiiy xom-ashyo;
- b) turli buzilishlarga, chirishlarga harshi antiseptik moddalar shimdirilgan yog'och xom-ashyosi;
- v) presslangan yog'och xom-ashyosi;
- g) elimlangan yog'och xom-ashyosi;
- d) qatlam-qatlam yog'och xom-ashyosi;
- e) qatlamli presslangan yog'och xom-ashyosi;
- yo) plastik yog'och xom-ashyosi (maydalangan qipiq, payraxa va qirindilarni organik va mineral bog'lovchilar bilan elimlib, qayta ishlab tayyorlanadi).

Yog'och da asosan 1-guruhga kiruvchi, ya'ni, tabiiy yog'och xodalaridan, g'o'lalaridan olinadigan taxtalar xom-ashyo sifatida ishlatiladi. Yog'och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga va hidiga harab aniqlanadi.

Daraxtlar bo'yicha harab 3 guruhga bo'linadi:

1. 35 metrdan baland - chinor, terak, qora qayin, harag'ay;
2. 25 metrdan 35 metrgacha - qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrang'i;
3. 25 metrgacha - zarang, chetan, shumurt kabi mevali daraxtlarga hamda butalarga bo'linadi.

o'zbekistonda yog'ochlarning yumshoq, qattiq va juda qattiq xodalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari mavjud.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda, jumladan, yog'och da ham asosiy material sifatida ko'proq ishlatiladi. Chunki, nina bargli daraxtlar tarkibida smolali moddalari ko'proq bo'lganligi uchun u tez chirib ketmasligi, namga chidamliligi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pligi va engilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasining to'g'riligi, silliqligi, ulardan olinadigan xodalarning kam butoqligi bilan o'ymakor ustalariga ko'proq qo'l keladi. Yog'och o'ymakor ustalar o'z asarlarini har tomonlama go'zal va jozibador chiqishi uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. hozirgi kunda mahalliy daraxtlardan olingan materiallar bilan bir qatorda boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, harag'ay, arg'uvon, shumtol, zirk kabi boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatilmoqda.

Yog'och o'ymakor ustalar o'zlari yaratayotgan buyumlariga harab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berilishining oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'och xom-ashyolari olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

ARChA (ruscha - mojjevelnik) – o'zbekistonning tog'li joylarida o'sadigan daraxtlardan biri bo'lib, u 1000 yoshgacha yashaydi. Po'stlog'i qalin, rangi kulrang, tanasining tusi qizg'ish-pushti bo'lib tovlanadi. Serbutoq, kam smolali, puxta namga chidamsiz igna bargli daraxt. Undan qog'oz sanoatida,

mebellar va boshqa narsalar yasashda foydalaniladi. Yog'och da qadimdan qo'llanib kelingan.

ARG'UVON (ruscha - lipa) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Uning yillik xalqalarini aniqlash qiyin. Arg'uvon kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson. hidsiz bo'lganligi uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalari, chizmachilik taxtalari yasaladi. Yogoch da arg'uvonning sakson-to'qson yilligi ishlatiladi.

BAQATERAK – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, rangi oq-ko'kish, tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Baqaterakning yog'ochi oqish tusli bo'lib, namga chidamsiz daraxt hisoblanadi. U qurilish ishlarida, o'ymakorlik, duradgorlik buyumlarini tayyorlashda ishlatiladi. Undan eshiklar tayyorlashda va panjara to'qishda keng qo'llaniladi.

YONG'OQ (ruscha - grecheskiy orex) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i ko'kimtir, qalin, silliq, yog'ochi qizg'ish kul rang tusli, qattiq va og'ir, qimmatbaho yog'och. Uning tanasini pastki qismida po'stlog'ining chatnog'i bor. Yong'oqning tabiiy guli chiroyli, ishlov berish qiyin bo'lsa-da yaxshi o'yiladi va yaxshi pardoatlanadi. Uningtarkibida yog' va yod moddasining mavjudligi yong'oqdan yasalgan buyumlarga o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och da keng-ko'lamda ishlatiladi.

ZARANG (ruscha - klyon) – qattiq yog'och turiga kirib, u qoramtir qizg'ish rangli, zich, puxta, mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib, o'zgacha bir chiroy kasb etadi. Yillik halqalari bir oz bilinadi, ishlov berilishi bir oz qiyin, yaxshi o'yiladi va pardoatlanadi. Zarangning qush ko'ziga o'xshash tabiiy gullarining chiroyi boshqa yog'ochlardan ajratib turadi. Yog'och o'ymakor ustalari uning qush ko'ziga o'xshash gullarini hisobga olib qush ko'zi deb ham aytadilar. Yog'och da, mebelsozlikda zarang xom-ashyolaridan tayyorlangan buyumlar qimmatbaho hisoblanadi. U mashinasozlik korxonalarida ham ishlatiladi.

ZIRK (ruscha - olxa) – uning ikki turi mavjud bo'lib, oq zirk va qora zirk deb yuritiladi. Oq zirkning po'stlog'i tiniq hamda silliq bo'ladi. qora zirkning po'stlog'i qoramtir tusda bo'lib, qalin, chatnagan bo'ladi. Zirk namga chidamlilik, bo'yoqni yaxshi oladi, yog'ochi oqish, ochiq havoda tez qizarib ketadi. Yumshoq yillik halqlari ko'zga tez va yaqqol tashlanadi. o'yilishi va pardoatlanishi qiyin. Undan arzon mebellar va fanerlar tayyorlashda ishlatiladi, chunki unga tez qurt tushadi.

MIRZATERAK (ruscha - topol) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, po'stlog'i sarg'ish, kam chatnagan va silliq bo'ladi. U kam shoxli, tanasi tik va to'g'ri, yog'ochi oq tusli, namga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak o'ymakorlikda va yog'och da keng ishlatiladi.

NOK (ruscha - grusha) – bargli, mevali, qalin po'stloqli, chatnagan bo'ladi. Nokning yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Uning xodalaridan gul bosadigan qoliplar, randalangan fonerlar va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. o'ymakorlikda ishlatiladi.

OQ QAYIN (ruscha - beryoza) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uncha qalin bo'lmagan oqish po'stlog'i palaxsa-palaxsa yorilgan bo'ladi. Uning yog'ochi qattiq, oqish tusli, yog'ochiga ishlov berish qiyin, yillik halqalari bilinar-bilinmas, namga chidamsiz, o'yilganda o'ta sifatsiz chiqadi, lekin yaxshi pardoatlanadi. Tanasida smola va yog'ning yo'qligi sababli tolalari qovushoq emas. Asosan oq qayindan fanerlar, mebellar, egri chizikli yog'och detallar va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi. U yog'och da kam ishlatilib duradgorlik va qurilishda keng ishlatiladi.

OQ HARAG'AY (ruscha - pixta) – po'stlog'i yupqa, silliq, kulrang tusda, yumshoq, engil, oson ishlanadi, biroz qoramtir dog'li, yog'ochi oqish tusda bo'ladi. U mayda ko'zli, kam yog' va kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz daraxtlar sirasiga kiradi. Oq harag'ay ko'proq cholg'u asboblarni yasashda, asosan qurilishlarda ishlatiladi. Yog'och da qisman ishlatiladi.

TILOG'OCh (ruscha - listvennitsa) – igna barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxt o'ta og'ir, yog'ochi qattiq, qoramtir-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Tilog'och namga chidamli, harag'ay daraxtiga qaraganda 30% mustaxkam. U ortiqcha yog'li va smolali, o'yilishi biroz qiyinroq bo'lsa-da, chiroyli pardoatlanadi. Po'stlog'i qalin, yillik halqalari aniq ko'rinadi, yog'ochi mayin qatlamli. Tilog'och ortiqcha yog'li va smolali bo'lganligi uchun tez chirishning oldini oladi, issiqda o'yma yuzasidan smolasi qo'yilib oqib chiqadi va o'ymaning sifatini buzadi. Shu va shu kabi tomonlari uni yog'och da kam qo'llashga olib keladi. U asosan qurilishda ishlatiladi.

TOG' TERAGI (ruscha - osina) – yaproq bargli daraxt, po'stlog'ining rangi sarg'imir, yupharoq, tanasining pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Tog' teragi yumshoq yog'ochlar turiga kiradi, yog'ochiga ishlov berish oson, engil, tanasi oqish-sarg'imir tusda, namga chidamsiz, yillik halqalari aniq ko'rinadi. Undan turli-tuman o'yinchoqlar, idishlar, gugurt qutilari va donalari, faner, har xil buyumlar tayyorlanadi. qurilishda, eshik va romlar yasashda foydalanish mumkin. Yog'och da namga chidamsizligi va juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

CHINOR (ruscha - platan) – yaproq barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qizg'ish-sariq tusli, tanasining rangi qizg'ish-qoramtir, ko'p shoxli, mustahkam va qattiq, pishiq-puxta, yupqa, silliq. Chinordan olingan yog'och materiallariga ishlov berish qiyin, yog'ochida tabiiy atlassimon gullari bor, loklanganda o'zgacha bir chiroy va joziba baxsh etadi. Yog'och tolalari betartib bo'lganligi bois o'ymakor ustadan mahorat va sinchkovlikni talab etadi. o'yilganda o'yma sifatli va pardozi nafis chiqadi. Chinordan qimmatbaho mebellar va randalangan fanerlar tayyorlanadi. Yog'och da keng-ko'lamda ishlatiladi.

SHUMTOL (ruscha - yasen) – yaproq bargli, kam yoriluvchan, qovushoq yog'ochli, och qizg'ish rangli, mustahkam, puxta, pishiq, tabiiy guli chiroyli va egiluvchan daraxt. Uning yog'ochiga ishlov berish qiyin, silliq randalanadi va

pardozlanadi. Yillik tolalari aniq ko'rinadi, bug'langanda esa yaxshi egiluvchan bo'ladi. Shumtolning yog'ochidan olingan materiallar faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo'llaniladi. Uning yog'ochidan har xil asbob dastalari, sport buyumlari tayyorlanadi. Yog'och da keng foydalaniladi.

O'RIK (ruscha - uryuk) – yaproq bargli daraxt. Mevali, tanasi qoramtir qizg'ish, qattiq va mustahkam. Uning yog'ochidan har xil mayda buyumlar, lauh, qutichalar tayyorlashda va inkrustatsiya ishlashda foydalaniladi. Yog'och da keng ishlatiladi.

HARAG'AY (ruscha - sosna) - ignabarglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qalin, to'q jiggarang tusda bo'ladi. Uning yog'ochi puxta, engil, smolali, oq-qizg'ish, namga chidamli daraxt. harag'ay tik va to'g'ri o'sadi, uning balandligi 30-40 metrgacha, yoshi 120-150 yilgacha bo'ladi. Uning yillik halqalari aniq ko'rinib o'ziga xos ko'rinishga ega. harag'ay yumshoq yog'och bo'lib, uni yorish, arralash, randalash, elimlash, bo'yash, loklash, ishlov berish oson. U kemasozlikda, qurilishda, mebel ishlab chiharishda va duradgorlikda ishlatiladi. Yog'och da monumental ishlarda keng ko'lamda ishlatiladi.

QORA QAYIN (ruscha - buk) – yaproq barglilar turiga kiruvchan ushbu daraxtning tanasi sarg'ish-qizg'imtir tusli, tovlanadigan tiniq, yog'ochi og'ir, qattiq, qovushoq bo'lsa-da namga chidamsiz. Uning xodalarini radial qirqimi bo'yicha chiroyli, tabiiy gulli, yillik halqalari yirikroq va aniq ko'rinadi. qora qayin egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun fanerlar, mebellar yasashda, chizmachilik asboblari tayyorlashda qo'l keladi. qattiq va mustahkam bo'lganligi uchun yog'och mix, parket polini ishlashda keng-ko'lamda foydalaniladi. Islimiy naqshlar qora qayin yog'ochidan juda nafis va chiroyli chiqadi. qora qayin yog'och da keng ko'lamda ishlatilib, asosan 100-105 yoshga kirganlaridan foydalaniladi. Bu yog'ochdan yasalgan buyumlar pardozlanib loklanganda ajib bir chiroy baxsh etadi.

Yog'och da ishlatiladigan turli xom-ashyolar o'zining pishiqligi, nuqsonsizligi, qurt emaganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa yanada go'zal tovlanishi, ko'p yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardoatlanishi, o'yishda qo'porilmasligi va shunga o'xshash o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yasalayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash alohida ahamiyatga ega. Yog'och xom-ashyosidagi tabiiy go'zallik, chiroy yasalgan buyumga o'zgacha bir joziba bag'ishlaydi. Shu va shu kabi sifatlarni inobatga olgan ustalar yog'och xom-ashyosiga buyum yasashdan avvalroq ishlov berib, yillar davomida tayyorlab kelganlar.

Qadimda ota-bobolarimiz yog'och xom-ashyolarini tabiiy holda quritish, turli buzilishlardan saqlash maqsadida turli tadbirlarni qo'llaganlar. Chunonchi, yog'och xom-ashyosi kesilib xoda holiga keltirilgach. uning po'stidan tozalab, kesilgan tomoniga yog'li qog'oz mahsulotidan elimlaganlar va suvli hovzaga tashlab 3-5 yil saqlaganlar. So'ngra suvdan olib quyosh nuri tushmaydigan qorong'i joyda 5-10 yil quritilgan. Yog'och xom-ashyosida tabiiy go'zallik hosil qilish uchun xodalar qurigandan so'ng taxta holiga keltirilib uni samon ostiga ko'milgan. Samonning qizishi natijasida yog'och xom-ashyosida tabiiy ranglar va gullar hosil bo'lgan. Shu va shu kabi usullarda tayyorlangan yog'och xom-ashyolaridan yasalgan buyumlarda hosil bo'lgan tabiiy ranglar va gullar loklangandan so'ng o'zgacha bir go'zallik, chiroy va joziba kasb etadi.

Yog'och da ishlatiladigan asbob-uskunalar va uning turlari.

Yog'och da asosiy ish quroli iskanalar bo'lib, ular tuzilishi va bajaradigan vazifalari jihatidan turlicha bo'ladi. Iskanalar ikki turga bo'linib yo'nuvchi iskanalar va o'yuvchi iskanalardan iborat. Yo'nuvchi iskanalar qo'l kuchi bilan yo'nib ishlanadigan, randa bilan ishlashning imkoniyati bo'lmagan joylarga ishlov berishda foydalaniladi. o'yuvchi iskanalar esa tashqi kuch ta'siri ostida ishlatiladi, ya'ni bolg'a bilan urib ishlatilib, bu iskanalar yordamida yog'ochlarni teshishda, uycharlar hosil qilishda, quloqchalar ochishda, asosan o'yma bezaklarni bajarishda foydalaniladi.

Yo'nuvchi iskanalar bilan o'yuvchi iskanalar bir-biridan tashqi ko'rinishi jihatidan, ya'ni dastalarining bir yoki ikki tomonidan halqasi bo'lishi, o'tkirlik burchaklari bilan farq qiladi. Yo'nuvchi iskanalarga tashqi kuch ta'sir etmaydigan bo'lganligi uchun faqat dastasining paski tomonida halqacha qo'yiladi hamda o'tkirlik burchagining kichik bo'lishi bilan ajralib turadi. Chunki, uning yo'nuvchi pichog'i yupqa bo'ladi. o'yuvchi iskanalarning esa kesuvchi pichog'ining qalinligi, tashqi kuch ta'sirida dastasining yorilib, titilib ketmasligini oldini olish, uzoqroq ishlashini ta'minlash maqsadida ichki tomoniga temir halqachalar quyiladi.

Iskanalarning dastasi pishiq yog'ochlar, ya'ni qora qayin, qayrag'och, zarang, yong'oq, o'rik, shumtol va boshqa daraxt yog'ochlaridan tayyorlanadi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan urib ishlanadi. Shuning uchun ham iskanalarning dastasi pishiq yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanmog'i lozim. Plastmassali dastalar tashqi kuchga ta'sirli, yorilishga chidamli bo'lib, bolg'a bilan urganda yorilib ketmaydi.

Yog'och da ishlatiladigan iskanalar maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki ustalarning o'zlari yasaganlar. Xozirda yog'och da ishlatiladigan iskanalar metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarni charxlashga ham alohida e'tibor haratish lozim. Iskanalar bir tomonga harab, o'ziga xos o'tkir burchak ostida charxlanishi lozim.

Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarning bir necha xillari bo'lib, ular quyidagilardan iborat: oddiy to'g'ri iskana, zamin iskana, nova iskana, baliq sirti iskana, kovza iskana, kurakcha iskana, morpech iskana, chekma iskana, chuv iskana, qing'ir iskana va boshqalarni tashkil etadi. Iskanalar o'zining tuzilishi va ko'rinishiga harab turlicha vazifalarni bajaradi.

Oddiy to'g'ri iskana – to'g'ri sterjen kesgichli bo'lib, tig'ining eniga harab kichkina, o'rtacha va katta bo'ladi. Oddiy to'g'ri iskana tig'ining eni 1,7 mm dan 30 mm gacha bo'ladi. Mazkur iskana yo'nishda va o'yishda ishlatilib,

kupincha girih, guli girih naqshlarini kesishda va zaminini o'yishda, tekislashda ishlatiladi.

Kurakcha iskana – kesadigan tig'ining uchi bir tomonga qiya holatda bo'lib, u kurakcha ko'rinishda bo'ladi. Kurakcha iskanalar katta-kichikligiga harab turlicha bo'ladi. Kurakcha iskanalar ensiz zanjira, hoshiya naqshlarini o'yishda, zaminsiz o'ymani bajarishda ishlatiladi. Yo'nuvchi va o'yuvchi bu asbob bilan ishlashda iskananing sterjenini o'ng qo'lda, dastasini chap qo'lda ushlab, tasvir yoki naqsh chizig'ini ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o'ymakor usta o'zi tomonga tortib kesib boradi.

Zamin iskana – o'ymaning zaminini o'yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 10 mm gacha bo'ladi.

Baliq sirti iskana – tig'i botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovurg'asi shaklida bo'ladi. Ushbu iskana baliq tangalari ko'rinishidagi o'ymalarni amalga oshirishda ishlatilib, o'ymaga o'zgacha ko'rk baxsh etadi. Baliq sirti iskana keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha, katta-kichikligiga harab uning kichik, o'rtacha va katta turlari bo'ladi.

Morpech iskana – o'ymaning chetlaridagi hoshiya, zanjira, yarim doiralar va nuqtalarni chiharishda qo'llaniladi.

Chekma iskana – o'yilgan naqsh zaminini patir yuzasiga o'xshatib chekmalab o'yib chiqishda ishlatiladi. U o'yilgan naqshlarni aniq ko'rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o'ziga xos badiiy ko'rinishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Ishlatish joyiga harab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o'n olti tishli chekma iskanalar bo'ladi.

Chekma qalam – o'yma naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. Bu asbob yog'och banddan va uzun temir stejendan iborat. Chakichlar bir qatorli, ikki qatorli va uch qatorli bo'lib, har bir qatorida 2, 3, 4, 5 va hakkazo bo'rtma tishli bo'lishi mumkin. Chekma qalamda chakichlangan naqsh aniq, mayin va yanada nafis ko'rinishga ega bo'ladi.

yog'och da ishlatiladigan yordamchi asboblari.

Yog'och da buyumlarni o'yib bezashda asosiy asbob-uskuna, ya'ni iskanalardan tashhari yordamchi asboblari ham kerak bo'ladi. qalam, tsirkul, chizg'ich, o'chirg'ich, jilvir qog'ozi, knopka, duradgorlik dastgohlari, bolg'a, elim va boshqalar shular jumlasidandir.

QALAM (arabcha) – o'rtasiga ingichka, uzun ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, quruq bo'yoqdan qilingan qotishma joylangan cho'p shaklidagi yozuv asbob. qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlatiladi. o'rta Osiyoda hattotlar siyoh bilan yoziladigan hamishlardan foydalanganlar. Chex olimi Y.Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog'och qalamlar ishlash joyi va hususiyatiga arab grafitli, rangli va boshqalarga bo'linadi, shuningdek ular joyiga arab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Grafit qattiq va yumshoqligiga arab uch turga bo'linadi. qattiq qatlamlar T, 2T, 3T, N, 2N, 3N; yumshoq qalamlar M, 2M, 3M, 4M yoki V, 2V, 3V; o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM, NV, g' harflari bilan belgilanadi.

CHIZG'ICH (ruscha - lineyka) – to'g'ri chiziq chizish uchun ishlatiladigan silliq asbob bo'lib, o'quv va idora ishlarini bajarishda foydalaniladi. Chizg'ich o'lchash yoki hisoblash uchun ishlatiladigan santimetr va millimetrlarga bo'lingan bo'ladi.

PARGOR (ruscha - tsirkul) – bir uchi sharnirli biriktirilgan ikki yoqli chizmachilik asbobi bo'lib, bir uchida qalam sterjen, ikkinchi uchida nina sterjen o'rnatilgan bo'ladi. Bu asbob o'lchash, aylana va yoqlar chizish uchun ishlatiladi.

O'CHIRG'ICH (ruscha - rezina) – yozilgan yoki chizilgan narsani o'chirish uchun ishlatiladigan maxsus rezina bo'lagi. U naqsh kompozitsiyalar chizishda ortiqcha chiziqlarni o'chirish uchun qo'llaniladi. qalamda chizilgan chiziqlarni yumshoq oq yoki ko'k o'chirg'ichda, siyoh yoki tush bilan chizilgan

chiziqlarni esa tarkibida maydalangan qumi bo'lgan qizil o'chirg'ichda o'chiriladi.

KNOPKA (ruscha - gollandcha) – keng qalpoqchali, bosma mixcha bo'lib, qog'oz, mato va shu kabilarni qattiq narsaga mahkam qadab qo'yish uchun ishlatiladi.

JILVIR QOG'OZ – buyumlarning sirtini silliqlash, sayqallash, jilolash uchun ishlatilib qayroq qum qoplagan qog'oz yoki mato hisoblanadi. Shuningdek, tabiiy va sun'iy abraziv materiallar, ya'ni tog' jinslari kvarts, qum, korund, shisha, gemotit va boshqalarni maydalab mato yoki qog'ozga yopishtirib tayyorlangan maxsus material. Jilvir qog'ozlari mayda yoki yirik donali bo'ladi. Jilvir donachalariga harab 12, 16, 20, 24, 36, 60 va hakazo nomerli bo'ladi.

Ma'lumki, yog'och da yog'ochlarning ishlov berishga tayyorlashda turli elimlardan foydalaniladi.

Elim (fors - tojikcha) – suyuqlangan yuqori molekulyar anorganik va organik moddalar yoki ularning eritmalari bo'lib, turli materiallarni bir-biriga yopishtirish uchun ishlatiladi.

Elimlar tabiiy, sun'iy hamda rezina elimlarga bo'linadi.

Tabiiy elimlar – hayvonlar (suyak, sut, teri, pay va boshqa) va o'simliklar (daraxtlar shiralari, kraxmal qipiqlarni qayta ishlash natijasida) mahsulotlaridan olinadi. Namlikka ancha chidamsiz.

Sun'iy elimlar (smolalar) – polimerlar emultatsiyasi, shuningdek, erituvchi qo'shilgan va qo'shilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Turli materiallar, shisha, plastmassa, metall, chinni, penoplast, suyak, qog'oz va boshqalarni biriktirishda keng ko'lamda ishlatiladi. Issiq, sovuq, namlik, ishqalanish, egilish, bukilish va siljish kuchlanishlariga yaxshi chidaydi.

Rezina (kauchukli) elimlar – o'z o'rnida tabiiy va sintetik yo'l bilan olinadigan turlarga bo'linadi. Ushbu elimlarning tabiiy yo'l bilan olinadigani

kauchuk daraxti smolasidan, sintetik yo'l bilan olinadigani esa rezinali birikmalarning erituvchilarda (benzin, kerosin, spirt) erigan ko'rinishidir. Turli jinsdagi materiallarni, masalan, yog'ochni tsementga, metallni shishaga, gazlamani plastmassaga biriktirishda ishlatiladi.

Yog'ochsozlikda, duradgorlikda, o'ymakorlikda ko'pincha hayvon elimlaridan kazeinli elimlar ishlatiladi. Namlikka chidamli kazein (lot-kasgeispishloq) – murakkab oqsil bo'lib, kimyoda fosfoproteid tuzilishini namoyon qiladi. Sutning ivishi jarayonida uning tarkibidagi kazeinogendan hosil bo'ladi. Tuzli, ishqorli muhitda eriydi.

Yog'och da taxtalarni o'ymakorlikka tayyorlashda bir-biriga biriktirilib, o'yiladigan buyumning asosi tayyorlab olinadi. Taxtalarning o'yiladigan yuza qatlami silliqdanib, tobga keltiriladi. Avvaliga mayda tishli arrada arralanadi, keyin esa mayin burrada arralanadi. Tekis qilib randalanadi va bir-biriga tekkizib, mayda tirqishlari yo'qligiga ishonch hosil qilinadi, shundan so'nggina taxtalar birlashtirilib, pardoatlanadi. Pardoatlanishda mayda qumli jilvir qog'oz, baxmal bilan artiladi. Shundan so'ng elimlash jarayoni amalga oshiriladi va taxtalar biriktiriladi. Yopishtirilayotgan yuza oralig'ida qirindi yoki bo'shliq qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun bir-biriga bir necha martalab ishqalab yuboriladi.

1.4. Buyum yasash, unga naqsh kompozitsiyasi tuzish va pardoqlash.

Yog'ochda yog'ochni yasalayotgan buyumga mos keladigan sifatlisini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. o'tmishda o'ymakor-ustalar bunga alohida ahamiyat berib, yillar davomida tayyorgarlik qilib borganlar. Daraxtlarni kesib xodasining ikki tomoniga, ya'ni kesilgan joyiga qog'oz yopishtirib maxsus tayyorlangan suv havzalariga tashlab, bir necha yil saqlaganlar. So'ng uni olib quritishda quyosh nuri tushmaydigan, salqin joyda quritgan. Bu yog'och xom-ashyosini yorilishdan saqlash bilan bir qatorda namga, har xil chirishlarga bo'lgan chidamliligini oshirgan.

Yog'och xom-ashyosining tabiiy guli buyumga o'zgacha bir tarovat berib turadi. Ota-bobolarimiz buni e'tibordan chetda qoldirmaganlar. quritilgan yog'ochni bug'doy, arpa yoki sholi yanchilganda poyalarining maydalanishidan hosil bo'lgan somonidan foydalanib, taxtani unga ko'mib qo'yganlar. Somon o'zidan issiqlik chiharib taxta yuzasini qizartirib tabiiy gul hosil qilgan.

Buyum yasashda u qaerlarda va qay maqsadda foydalanishiga ham e'tibor haratish lozim. Biz quticha yasash ustida to'xtalib o'taylik. quticha yasash uchun eng qulay yog'och xom-ashyosi qora qayin, yong'oq va zarang materiallari deb aytishimiz mumkin. uning o'lchamini esa taxminan eni 10 sm, bo'yi 20 sm, balandligi 6 sm qilib olamiz.

Kerakli o'lchamda taxtachalar arralab tayyorlangach, jilvir qog'ozda silliqlab olinadi. Ularni biriktirishda esa yashirin birikmani qo'llagan holda biriktirishimiz mumkin. Biriktirib olganimizdan so'ng burchaklarini, bir-biriga ulangan joylarini ko'zdan kechirib, yana bir marotaba jilvirlab chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (tsirkul) va boshqa bir qator asboblardan kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tuzilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoharashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach xitoy qog'oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga haramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga harab o'sadi, bu tabiat qonunidir. Masalan, majnuntol misolida ko'radigan bo'lsak, majnuntol xuddi pastga harab teskari o'sayotgandek tuyulsa-da, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishiga harab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topgan.

Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun - qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai - nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda hoh o'yishda bo'lsin yoki parдоз berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.

Dafʼatan haraganimizda oʻyma naqsh juda chiroyli, goʻzal va jozibador koʻrinsa-da, lekin bir ozdan soʻng naqsh kompozitsiyasi tuzishda qoʻyilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi. Mohiyatan olib haraganimizda kompozitsiya nima oʻzi?

KOMPOZITSIYA – ruscha-lotinchacha soʻzdan olingan boʻlib, adabiy asar yoki sanʼat asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va oʻzaro munosabati hamda tarkibiy qismlari maʼno jihatidan oʻzaro bogʻlanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy sanʼat asari tushuniladi. Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uygʻunligi kabi komponentlarni oʻz ichiga oladi.

KOMPANOVKA, yaʼni joylashtirish – chizish kerak boʻlgan naqsh kompozitsiyasini yoki tasvirni qogʻoz, oʻyma uchun tayyorlangan taxatacha, buyum yoki tasvirni tushirish lozim boʻlgan yuzaga toʻgʻri joylashtirish demakdir.

TAQSIM (ruscha *rapport*) – frantsuzcha soʻzdan olingan boʻlib, naqshning maʼlum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, boʻlagi hisoblanadi. Markaziy Osiyo naqshlari oʻziga xos xarakterga ega boʻlib, naqshlarning deyarli hammasi takrorlanuvchi maʼlum boʻlakdan, qismdan iboratdir. oʻymakor-naqqoshlar avval taqsim yuzini qogʻozga belgilab, naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizadi va axtasini, yaʼni ulgusini tayyorlaydi. oʻymakor-naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirishi natijasida naqsh kompozitsiyasi yaxlit holga keladi. Naqsh kompozitsiyasining takrorlanuvchi qismi har xil boʻladi. Masalan, uchburchak, toʻrtburchak, kvadrat va hakkazo koʻrinishda boʻlishi mumkin. Doira yoki gumbazga oʻxshash buyum yuzasiga moʻljallangan boʻlsa naqsh taqsimi kompozitsiya yuzining toʻrtidan, oltidan, sakkizdan, oʻn ikkidan va hakkazo qismlarini tashkil etib, taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsimni aylana taqsim deb ham atashadi. Taqsim toʻgʻri chiziq boʻyicha takrorlansa uni toʻgʻri taqsim deb

yuritiladi. Taqsim to'g'ri va oynada aksi ko'ringandek shaklda almashlab takrorlansa unda chapu-rost taqsim deyiladi. Bunday ko'rinishdagi taqsimlar juda keng tarqalgan.

Naqsh kompozitsiyasi chizishda quyidagilarga e'tibor haratish va amal qilish kerak bo'ladi:

Birinchidan, tanob yoki novda tagida gul, g'uncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas, ya'ni: naqsh kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va shakl beuvchi chiziq hisoblanadi;

Ikkinchidan, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;

Uchinchidan, taqsimda ortiqcha naqsh elementlarini chizishga yo'l qo'ymaslik;

To'rtinchidan, tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqalarni o'sib chiqqan holda tasvirlamaslik;

Beshinchidan, naqsh elementlari nisbatini saqlay bilish;

Oltinchidan, tuzilgan naqsh kompozitsiyasining yog'och ga moslab tuzilishini ta'minlash;

Ettinchidan, naqsh zichligiga e'tibor berish;

Sakkizinchidan, naqsh orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash va hokkazolarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Buyumdan olingan o'lchamga moslab naqsh kompozitsiyalaridan bir nechtasi chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan eng munosibi tanlab olinib, chetiga zanjiralardan birini hoshiya sifatida qo'llash ham mumkin. Agar zanjira qilmasa chetidan albatta ramka qoldirish zarur. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga qiyos qilish mumkin.

Kompozitsiya tuzishda naqsh elementlari hoshiyaga tekizilmaydi. Bu naqsh kompozitsiyasi alohida ajralib o'ziga xoslikka ega bo'lishligi bilan bir

qatorida joziba baxsh etadi. Bunga turinj, namoyon, kvadrat va boshqa tugallangan naqsh kompozitsiyasi tuzishda ayniqsa ahamiyat haratish lozim.

Tuzilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (xitoy qog'ozini yoki shaffof qog'oz) ga ko'chirib axta (ulgi) tayyorlanadi.

AXTA – tayyor rasmni shaffof qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. Ilk davrlarda ustalar o'yma yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizib, o'yib ketganlar. Keyinchalik esa axta orqali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar.

Axta tayyorlash uchun buyumning o'yma bajariladigan yuzasiga mo'ljallab yupqa shaffof qog'oz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'ylab shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokkazolarga bukkanadi. Buklangan shaffof qog'ozning bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'ozni yumshoq yostiq ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik-maydalagiga harab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yoki yirikligiga harab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng, shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan axtani o'yma yuzasiga qo'yib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko'chiriladi.

Ko'chirilgan naqsh nusxasini o'yishda yog'och da turli asboblari ishlatilib, ularning har biri o'ziga xos ishlarni bajaradi. Yog'och da asboblari ikki turga bo'linadi, ya'ni naqshni o'yish uchun “o'yma qalamlar” va ikkinchisi “naqsh qalamlar”dir.

Iskanalar shakli va bajaradigan ishiga harab ularning bir qancha turlari mavjud. Masalan, to'g'ri iskana, kovza iskana, nova iskana, zamin iskana, baliq sirti iskana, morpech iskana, chekma iskana, kurakcha iskana, chekma qalam va boshqalar kiradi. Odatda yog'och da ishlatiladigan iskanalarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'ymakor ustalarning

o'zlari tayyorlaganlar. o'yish bosqichlari esa biz avvalgi mashg'ulotlarimizda ta'kidlab, amalda ko'rganimiz kabi ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

o'ymakorlik ishlarini amalga oshirib bo'lgach, albatta, so'nggi pardozlash ishlari bajariladi. Xalq amaliy bezak san'ati turlari zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik kabi yog'och da ham buyumga oxirgi ishlov berish, pardoz berish, jilolashdan iboratdir. Masalan, yog'och da umuman 6 ta pardoz turi mavjud bo'lib, ular qirma, chizma, pax, choka, lo'la va tabaqa pardoz turlariga bo'linadi. Shularga 4 xili, ya'ni pax, choka, lo'la va tabaqa pardozlari rel'efga pardoz berishda ishlatiladi. Ushbu pardoz turlari 2 ga bo'linib oddiy (pax va choka) va murakkab (lo'la va tabaqa) pardoz turlarini o'z ichiga oladi.

Odatda tuzilgan naqsh kompozitsiyasining xarakteriga mos ravishda pardoz turi tanlanadi. Pardoz turini tanlashda yorug' va soya tushishini ham hisobga olishni unutmaslik kerak. Masalan:

Pax pardoz – yog'och da o'yima naqsh reliefini bir tomonga qiyalab kesiladigan oddiy pardoz turidir. Bu pardozni yoyma pardoz deb ham yuritiladi. Ustalar pax pardozi “zanjira” ni o'yish natijasida yuzaga kelgan deya taxmin qilishadi. Pax pardozi choka pardoz, lo'la pardoz va tabaqa pardozdan ancha oson bo'lib, pax pardozi berilgan o'ymadagi nur va soya ancha yumshab mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Choka pardoz – naqsh bandining qiyaligini o'rtaga olib uzunasiga o'yilgan pardoz turi. Bu pardozni yorma pardoz deb ham ataydilar. qo'kon yog'och o'ymakorlik maktabi ustalari bu pardoz turidan keng foydalanadilar. Choka pardozi o'ymakor ustadan mahorat va iste'dod talab qiladi. Bu pardoz turi bilan pardozlangan naqsh o'zgacha bir xusn kasb etadi.

Lo'la pardoz – o'yima reliefini yarim yumaloq shaklda ishlov berilgan murakkab pardoz turi. Bu pardoz turi nafaqat yog'och da, balki ganch va tosh da ham ishlatiladi. Lo'la pardoz turi barcha pardoz turlari ichida eng oxiri qo'llanila

boshlangan. Lo'la pardozi bilan pardozlangan o'ymaning chuqurligi kamayadi va naqsh mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Tabaqa pardoz – XIX asrda Buxoro ustalari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'yilayotgan barg, gul ikki yoki uch qatlam qilib o'yiladigan pardoz turi. Tabaqa arabcha qatlam, daraja degan ma'noni bildiradi. Tabaqa pardozi bircha pardoz turlari ichida eng murakkabi bo'lib, o'ymakor ustadan professional mahorati talb etiladi.

Buyumni loklash texnologiyasi

Yog'ochda qanchalik sifatli o'yma bajarilmasin, o'ymaga mos pardoz turi tanlanib a'lo darajada ishlov berilmasin, buyumni jozibadorligining 70-80 foizini so'nggi ishlov berilganlik darajasa tashkil qiladi. So'nggi ishlov berish deganda buyum o'yilib, zamini chakichlanib, o'ymaga mos pardoz berilgandan keyingi yumushlarni tushinmok kerak. Ya'ni, o'yma bajarilib bo'lingandan keyingi loklash boskichi nazarda tutiladi.

O'yma yuzasiga lok berishdan oldin o'yma yuzasini yaxshilab qum qog'ozda, ya'ni jilvir qog'ozda jilvirlab chiqish zarur. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jilvir qog'ozning bir necha turlari mavjud. O'yma yuzasini mayin jilvir qog'oz bilan jilvirlangandan so'ng chang va gardlardan tozalanadi.

Shu o'rinda quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizki, ya'ni turli yog'och o'ymakorlik maktablarida naqsh kompozitsiyasining tuzilishi, o'yilishi va pardoz usullari kabi loklash usullarida ham o'ziga xoslikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Jo'qon yog'och o'ymakorlik maktabi vakillari ba'zi hollarda monumental asarlarni yaratishda dastlab o'yma zamini va sirtiga bir tekisda alif moyi surtib chiqadilar, so'ngra loklashlariga guvoh bo'lsak, Samarqand yog'och maktabi vakillari esa o'ymaning hamma zamini va releflarini bir maromda loklab chiqadilar.

Xivalik ustalar yog'och rangining tabiiylikini saqlagan holda o'yma yuzasi va zaminiga avval paxta, zig'ir, ya'ni oq yog' berib so'ngra loklaydilar. Toshkentlik ustalar ijodiga nazar soladigan bo'lsak, umuman boshqacha manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin, ya'ni o'yma yuzasiga, xattoki o'yma

zaminini yog'och ranglari bilan och va to'q ko'rinishda bo'yab, so'ng o'yma relief yuzasini tanpon yordamida lok surtiladi. Bir necha marotaba lok surtib chiqilgandan keyin mayin baxmal material bilan lok qurigach artib chiqiladi. Bu ham buyumga o'ziga xos go'zallik va joziba baxsh etadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'ymaning sirti yoki zaminiga rang berilganda o'ymakorlikda ishlatiladigan bo'yoqlar suvli bo'lganligi sababli sifatsiz bajarilgan o'ymakorlik namunalari da yog'och namlanib toza olib tashlanmagan yog'och tolalari xunuk ko'rinishga kelib qoladi. Shuning uchun bo'yoq surtib chiqilgandan so'ng har gal bo'yoq qurigach mayin jilvir qog'ozda jilvirlanadi, zaminida sifatsiz o'yma tufayli hosil bo'lgan tolalar zamin iskana yordamida ehtiyotkorlik bilan olib tashlanadi.

Bo'yoq o'yma zaminiga mayin qilqalam bilan surtilsa, relief yuzasiga esa mayin va yumshok latta tanpon yordamida amalga oshiriladi. Yana shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik joizki, qanday bo'yoq tusidan foydalanishimiz bajarayotgan buyumimizning ishlatilish joyini, yog'och xom-ashyosining tabiiy ko'rinishini va hakkazolarni inobatga olgan holda rang tusini tanlash kerak. Yog'och da ishlatiladigan bo'yoqlar bir necha turga bo'linadi. Masalan, yong'oq tusli, dub yoki buk tusli va qo'ng'ir tusli bo'yoqlarni uchratishimiz mumkin.

Amaliy san'atning bir qator tur va janrlaridagidek yog'och da ham barcha yumushlar bajarilib, oxirgi ishlov berish, ya'ni loklash muammosi paydo bo'ladi. Yog'och ustasi lok turlarini bir-biridan farqlay olishi va amalda qo'llash texnologiyasini puxta egallagan bo'lishi zarur. Aks holda ne-ne mashaqqatlar bilan amalga oshirilgan mehnatni birgina arziyas xato tufayli yo'qqa chiqarishimiz mumkin. Chunki, o'ymakor usta tomonidan yaratilgan san'at asarinig jozibadorligiga, go'zalligiga va ko'rkamligiga loklash orqali erishiladi. Xo'sh, lok nima o'zi? Lok smolani spirtida eritib hosil qilinadigan suyuqlik bo'lib, buyumlarni yaltiratish va pardozlash uchun ishlatiladigan massa.

Lok sifatiga harab 4 s, 6 s va 7 s markali bo'lib, yog'li, spirtli va smolali loklarga bo'linadi. 4 s markali loklar tusi quyruq ko'k choy yoki paxta yog'iga

o'xshash bo'lib, ishlatilganda bo'yoqlarning, yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qoladi va rangini o'zgartirmaydi. 6 s va 7 s markali loklarning tusi qoramtir, rangi qora choyga o'xshash, hidi achchik bo'lib, ishlatilganda bo'yoqning va yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qolmaydi, ularning rangini o'zgartirib sal qoramtir tus beradi.

Ayrim loklarda yuqorida aytilgan maxsus markalar qo'yilmaydi. Masalan, PF-283 lokini olaylik. Ushbu lok Toshkent lok-moy ishlab chikarish korxonasi tayyorlangan bo'lib, rangsiz, xuddi 4 s markali lok tusiga o'xshash rangi toza, tiniq. Lok qanday markada bo'lishidan qat'iy nazar undan foydalanishdan avval uni kichkina narsaga surtib amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ishlatmoqchi bo'lgan lokimiz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz.

Chunki, lokni amalda qo'llamay turib u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin emas. Undan foydalanish jarayonida rang tusi, qanday havo haroratida qurishi va muddati, yaltiroqligi, amalda foydalanilgandagi jilo berishi kabilarni bilib olamaz va shu yo'sinda amalda qo'llaymiz. Odatda lok 18-22 darajali haroratda 48 soatda, ya'ni ikki sutkada yaxshi quriydi.

Buyum loklanganda maxsus salqin, changsiz va quruq joyda saqlanishi lozim. Chang va gardlar lok sifatiga putur etkazadi, issiq va nam joydalokning qurish muddati uzayadi. 2 va 3 marotaba lok surtilganda yaxshi qurimagan lok yig'ilib-yig'ilib burishib qoladi. Bunday kamchiliklar ishning saviyasiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun har bir ishni amalga oshirishda puxta o'ylab ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan harakat qilish zarur.

II BOB. Naqqoshlikda qalamdon va qutichani bezatish texnologiyasi

2.1. Naqqoshlik san'ati tarixi va uning maktablari

Naqqoshlik san'ati barcha amaliy san'at turlarining tarkibiy qismi o'laroq, O'rta Osiyo xalqlari orasida o'zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma'nolariga boyligi bilan qadimdan keng rivojlanib kelmoqda.

Ma'lumki vatanimizni ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm kabi shaharlardagi ko'qna obidalar ganchkorlik, yoqoch o'ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik namunalari bilan o'ziga xos ravishda bezatilgan

Ulardagi betakror naqsh bezaklarini kuzatar ekanmiz, ijodkor bo'yoqlar orqali shakllarni qanchalar nafis ifodalay olganidan xayratga tushamiz. Shuningdek, tarixiy Baktriya, Suqd, Xorazm, Shosh kabi hududlardan topilgan bezakli ashyolarning o'ta qadimiyligi ham, insoniyatning go'zallik olamiga qanchalar intiq yashaganligidan dalolat beradi.

Tarixdan har bir davr naqqoshlik san'atining rivojiga o'zining salmoqli qissasini qo'shib, uning yanada rivojlanib, taraqqiy etishiga zamin yaratib kelgan.

Surxandaryodagi Fayoz – tepa (I - II asr). Dalvarzin-tepa (II-asr). Xorazmdagi tuproq – qal'a (III-asr) devorlari ham turli rasm va naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI – VIII asrlarga oid Afrosiyob va Varaxsha saroylarining devoriy suvrat qoldiqlari esa birmuncha yaxshi saqlanib qolgan. Ajdodlarimiz bu kabi devoriy rasmlarda: insoniylik, baxt ona tabiatga cheksiz munabbat, shodlik, meqr va yovuzlik kabi sifatlarni rang va chiziqlar yordamida unsuz tovushlar orqali ifodalashgan.

VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak – naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Maxobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rnini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslub paydo bo'ldi.

IX asrlarda ganchkorlik, yoqoch o`ymakorligi, naqqoshlik, qisht terish, kitob bezagi san'atlari yanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Maqmur qoshhariy va boshqalarning ilmiy, tibbiy, ma'naviy hamda qur'on oyatlari zarxal naqshlar bilan bezatildi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi:

kvadrat – abadiylik, mustaxkamlik .

quyosh – qayot ramzi.

zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umr.

olma – muxabbat ramzi.

sher – mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

xumo – baxt keltiruvchi qush.

yashil rang – ona zamin.

havo rang – musaffo osmon.

Temur va Temuriylar davriga kelib esa ilmu-fan, madaniyat va san'at keskin rivojlandi. Ko`plab tarixiy inshoatlar qurilib ular koshinpazlik, unvonli serqasham yozuvlar va turli o`yma naqshlar bilan bezatildi.

Nusxa ko`chirish (xattotlik) kitobat (minatyura) san'atlari yanada rivoj topdi. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Beqzod, Maqmur Muzaqqib kabi ko`plab naqqosh – musavvirlar; Abduraqmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Deqlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ko`plab buyuk zotlarning asarlarini ajoyib tasvir va naqshlar bilan bezaganlar.

XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi (XVI asr) Baland masjid (XVI asr) Xo`ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr) Samarqanddagi Tillaqori madrasasi (XVII asr) va Zarxal naqshlar (kundal texnikasi) bilan bezatildi. Bu usul “Maqzi soxta” deb ham yuritiladi.

Naqqoshlikda lojuvard, yashil , qizil, tilla qal bo`yoq tuslarini o`zaro boqlanishi asosidagi “turunj” namoyon, girix usullaridan tashkil topgan naqsh namunalari ko`plab ishlangan.

Naqqoshlik san'atida o`ziga xos naqsh maktablari shakllana boshlandi. Ko`plab xalq ustalari etishib chiqib faoliyat ko`rsatdilar.

XX asr boshlarida naqqosh ustalar: Olimjon Qosimjonov, usta Sherali Xoji, Rauf Nazarov, ustazoda Yoqubjon Raupov, Vakil va Sobir Isaevlar Toshkentdagi Romanovlar saroyini, hozirgi xalq amaliy san'ati muzeyi binosini (sobiq Polovtsev uyini) va boshqa binolarni sharqona naqsh namunalari bilan bezadilar. 1947 yilda qurib bitkazilgan O`zbekiston Davlat opera va balet katta teatri binosining bezak ishlarida usta Vakil va Sobir Isaevlar, Yoqubjon Raupov, Olimjon Qosimjonov, Jalil qakimovlar samarali meqnat qildilar. Teatr binosini 1966 yilda qayta ta'mirlash ishlarida ham mohir usta Jalil Haqimovning xizmatlari katta bo`ldi.

Yangi naqsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib beradilar. Ular xalq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishini, chizish, o`yish, tikish usullari va pardoz berish qoidalarini yaxshi bilganlar. Naqqosh ustalar bir vaqtning o`zida bir necha hunar turlarini ham egallab borganlar. Masalan: Toshkentlik pargori usta Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jalil qakimovlar yoqoch o`ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshinpazlik, misgarlik kabi hunar turlarida erkin ijod qila olganlar.

Naqsh kompozitsiyalari, girihlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girihkor, katta ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli assimetrik shakllarda qo`llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

O`zbekistonda naqqoshlik san'atining o`ziga xos bir necha maktablari mavjud bo`lib, ular XX asrning o`rtalarida qayta shakllanib yanada rivojlandi.

Toshkent naqqoshlik maktabi o`ziga xos uslubga ega. Bu uslubda ishlangan naqshlar rang tuslarining nozikligi, yashil havo rang hamda oltinsimon jigarrang koloritlarda ishlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, naqsh elementlarining xilma-xilligi pardoz usullarining ko`proq tarqil tortish texnikasi bilan bajarilishi o`ziga xosdir.

Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalari Sherali Hoji Hasanov, Vakil va Sobir Isaevlar, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raupov, Jalil Hakimov, Toir To`xtaxo`jaev, Maqmurud To`raev, Komil Karimov va Anvar Ilxomovlardir.

Farqona naqqoshlik maktabining uslubi tojik namunalariga o`xshab ketadi. Naqsh kompozitsiyalarida ortiqcha shakl yasovchilarisiz, zamin bo`shliqlari islimiy gul va novda shakllari bilan mohirona to`ldiriladi. Farqona naqshlariga to`qroq, harama-harshi (kontrast) ranglar jilvasi uluqvorlik baqishlaydi. Gul va barg elementlarining pardozlari ko`proq edirma uslubida bajariladi. Farqona naqqoshlik maktabi qaqida gap ketganda qo`qonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norqo`zi Nurmatov, Saidmaqmurud Norqo`ziev, Saidaqmad Maqmurudovlardir. Mustaqilligimizning ilk yillarida o`zining 80 yoshlik to`ylarini nishonlab, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi unvonini olgan Saidaqmad Maqmurudovning ko`plab shogirtlari bor.

Xorazm naqqoshlik maktabining ham o`ziga xos uslubi mavjud. Xorazm naqshlari ko`proq novda ishtirokidagi aylana spiralsimon murakkab ko`rinishdagi naqshlardan iborat. Xorazm naqshlarini turlanishida uch va to`rt xil rang tuslari ishtirok etib, naqsh zaminlari havorang-yashil novdalar oq; rangda pardozi esa qora rangda bo`ladi. Xorazm naqshlarida islimiy egiluvchan madoqil shakllari ko`plab uchraydi. Xorazm naqqoshlik maktabi namoyondalari Abdulla Boltaev, Xo`janioyoz Saidnioyozov, Eshmurodov Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro`zimat Masharipov va boshqalardir.

Buxoro naqqoshlik maktabining ish uslublari naqsh kompozitsiyalarining mukammal va jozibadorligi, Girih o`simliksimon, aralash naqsh namunalarining yorqin ranglarda ishlanishi bilan xarakterlidir. Buxoro naqshlarida ko`proq namoyon naqsh kompozitsiyalari shuningdek kosamon, kitoba mexrob shakli naqshlariga xos namunalar ko`plab ishlanadi.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farqona naqshlariga o`xshab ketadi. Samarqand naqshlarida zangori-yashil rang tuslari ko`plab qo`llaniladi. Naqsh kompozitsiyalaridan o`simliksimon murakkab Girih turlari aloqida joziba kashf

etadi. Samarqand naqsh turlarida edirma-pardoz usullari keng qo'llaniladi. Bu naqqoshlik maktabning nomoyondalariga: usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta Sharif, usta Aminjon, usta Maqmur va boshqalar kiradi.

Naqqoshlikda ko'plab material va asboblari ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qoqoz, yumshoq qora qalam, chizqich va o'chirqich. Bo'yoq turlaridan guash, akvarel, moy bo'yoqlari, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar. Turli nomerlardagi mo'yqalamlar, pargor, shaffof qoqozi, kumush va tilla qal kukuni, xoka, nina, duradgorlik elimi, bo'r, alif, lak va qokazolar kerak bo'ladi.

Ularning ishlatilishini va ahamiyatlari bilan tanishaylik.

Naqshlarni bo'yash va ularga pardoz berishda bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi qayvonlarning yungidan tayyorlangan mayin mo'yqalamlar ishlatiladi. Mayda qil-qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tuqdiradi. Naqqosh ustalar zarurat tuqilsa yirikroq mo'yqalamlarni iplar bilan bo'lib boqlagan qolda kichiklashtirib ishlatadilar.

Mo'yqalam turlari:

Mo'yqalam – naqshlarning zaminlarini, shakl yuzalarini, gul, novda elementlarini bo'yashda ishlatiladi (9,10-nomerli).

Obiqalam – naqqoshlikda obi tortish naqsh yo'llariga suv tortish degan ma'noni anglatadi. Obi mo'yqalam yakka bandli tanob chiziqlarini oq bo'yoq bilan chizishda va mayda gul shakllarini ranglashda ishlatiladi.

Pardozqalam – gul qalam, tarqil qalam, mayda qillik mo'yqalam bo'lib, gul novda, barg va boshqa shakllarni nozik chiziqlar bilan chizilib, tarqil berishda ishlatiladi. (1,2-nomerli)

Chakma qalam – naqshlardagi chegara mazmunidagi bo'yalgan qora chiziqlar ustiga qo'yiluvchi to'rtko'z chakma tomchilarini berishda ishlatiladi. Chakma qalamni cho'pdan, uchi gugurt cho'pidan ingichkaroq yo'nib yasaladi. To'rtko'z chakma tomchilarini uchi to'ntoqroq mayda mo'yqalamlar yordamida qo'ysa ham bo'ladi.

Mo`yqalamlarning yaxshi saqlanishi uchun ularni ishlatib bo`lingach yaxshilab yuvilib qalamdonga yoki maxsus tirgakka qo`yiladi.

Belcha (shpatel) – buyum yoki naqsh chiziluvchi biron-bir satq yuzasini maxsus qorishma surtib silliqlashda ishlatiladi. Belchalar katta o`rtacha va kichik turlardan iborat bo`ladi.

Bo`yoq turlari:

Naqshlarni bo`yashda moyli tempera va asosan suvli bo`yoqlardan keng foydalaniladi. Suvli bo`yoqlarga guash, akvarel, emulsiya, kukun qolidagi quruq bo`yoqlar kiradi.

Naqqoshlikda eng ko`p ishlatiladigan oq rang tusi bo`lib, u boshqa bo`yoq turlari bilan aralashtirilib ishlatiladi.

qoqozlar – naqqoshlikda oq chizma qoqozi kalka va millimetrovka qoqozlaridan foydalaniladi. Naqsh chizishning boshlanqich davrlarida katak daftari va chizmachilik albomlaridan foydalaniladi.

Katta naqsh eskizlarini tayyorlashda millimetrovka qoqozi ishlatiladi. Bu kabi eskizlardan kalka-shaffof (xitoy) qoqoziga nusxa olinib ulgi (trafaret) tayyorlanadi.

qalam va o`chirqich – naqsh chizmalarini chiroyli va ravon chizilishida katta ahamiyatga ega. Chizganda va o`chirganda qoqoz yuzasini titilib ketmasligi uchun sifatli o`rtacha yumshoqlikdagi qalam va o`chirqichlardan foydalanish kerak. Titilib ketgan qoqoz yuzalariga bo`yoq tuslarini berish, sifatini buzadi. Albatta chizmalarni qoralama eskizlar yordamida bajarib, bo`yab pardoqlash uchun toza qoqozga nusxa ko`chirib ishlangani ma`qul. qalam bilan naqsh chizishda aniqlik bilan chizish kerak.

Sirkul (pargor) – aylanalar ishtirokidagi oddiy va murakkab geometrik naqshlarni chizishda ishlatiladi.

Aylana-panjarasimon naqshlarni ko`proq chizuvchi ustalarni amaliy san`atda pargori ustalar deb atashadi.

Nina-shaffof qoqoziga chizilgan naqsh nusxalarini teshib axtalar tayyorlashda qo`l keladi.

Pista ko`mir chala yongan yoqoch bo`laklari bo`lib, undan xoka tayyorlanadi. Xokani axta (trafaret) ustidan yurgizib nusxa tushiriladi.

Jilvir qoqoz. Jilvir qoqoz yoqoch buyumlarini naqshlashga tayyorlashda ularni silliqlash uchun ishlatiladi.

Tilla va kumush qallar-sariq, jez va alyuminning kukunlari bo`lib, yoqoch muymularini naqshlashda umumiy grunt vazifasida berilib, yoqoch buyumlarini naqshlashda umumiy grunt vazifasida berilib ham ishlanadi. Naqshlar bunday usulda ishlanganda qallangan buyum ustiga to`qridan-to`qri naqsh kompozitsiyasi tushirilib siyoq-qalam tortiladi. Naqshning qo`sh bandlari gul, novda va ayrim hoshiyalarni mana shu qaldagi fonda qoldirilishi mumkin.

Naqshlarni bunday usulda ishlash qadimdan qo`llanib kelinadi.

Tilla va kumush qallarni daraxt va duradgorlik elimlariga qorilgan. qozirda ularni PVA kleyiga qorish mumkin.

Shpaklyovka – yuzalarni naqshlashdan oldin sirtini tekislash uchun suriladigan quyuq massa. Shpaklyovka tayyorlash uchun duradgorlik elimi, mayda bo`r (mel), alif moy kerak bo`ladi.

Eng sodda naqsh elementlarini chizish.

Naqsh – o`zbek xalq amaliy bezak san'atining tarkibiy qismi bo`lib, ramziy ma'nolari, tabiiy shakl va ranglar jozibasi bilan go`zal.

Insoniyat qadimdan turar joylarni, uy-ro`zqor buyumlari va boshqa shu kabi amaliy san'at namunalarini bezashda, nafis naqsh tasvirlaridan keng foydalanib kelmoqda. Shu qatori u o`z qayoti bilan boqliq bo`lgan yon-atrofidagi barcha inshoot va jiqozlarni ona tabiat go`zalligi bilan uyqunlashuvi orzusida yashab, ijod qiladi.

Xo`sh, naqshning o`zi nimaq Uning qanday turlari mavjudq Naqsh elementlarini qanday hosil qilinadiq

Naqsh so`zi arabcha – tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o`simlik parranda, qayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng sodda ko`rinishlarda takrorlanib keluvchi tasviri ya'ni bezakdir.

O`zbek xalq amaliy san'atining barcha turlari, jumladan naqqoshlik, ganch va yoqoch o`ymakorligi, kandakorlik kabilar uchun naqsh elementlarining chizilishi o`xshash ko`rinsada, bajarilishi, texnologiyasi va pardoqlash usullari turlichadir. Masalan: Ganchkorlik va yoqoch o`ymakorligida naqshlar o`yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb bilan, zardo`zlikda qadab va shunga o`xshash usullar yordamida naqsh solinadi.

Naqshlar o`simliksimon geometrik, murakkab deb ataluvchi turlarga bo`linib ustalar tilida ko`pincha islmiy, Girih va gulli Girih (aralash) kabi iboralarda ham uchraydi.

O`simliksimon naqshlar asosan gul novda, kurtak, barg, quncha kabi elementlarning o`zaro ma'lum tartibda boqlanib tuzilishidir. Islmiy naqshlar tabiatan novda elementlarining bir tomonlama harakatlanib o`suvchanligini anglatish bois yuguruvchi nomiga ham ega. Jumladan majnuntol, chirmovuq kabi o`simlik elementlari aks ettirilgan naqshlarni kuzatar ekanmiz, ko`z ilhamas jimjimali novda yo`llari tabiatan bir tomonga xarakatlanib chizilganligini yaqqol sezamiz.

O`simliksimon naqshlar yakka (bir) va qo`sh (ikki) bandli novda ko`rinishlarida ishlanadi. Ularga misol qilib: ruta xoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va xokazo kabi naqsh namunalarini olish mumkin.

Girih naqshi chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to`qri chiziqlarning o`zaro kesishuvi natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi.

Girih naqshlari ham islmiy naqsh turlari singari ma'lum taqsim (rapport) bo`laklardan iborat bo`lib, aloqida tuzilishlarga ega bo`ladi. Girih naqshlari panjara-to`siq ma'nosini ham anglatib to`r kataklari yordamida tez va onson chiziladi. Panjara naqshlari ayniqsa pargori uslubida, turli o`ymakorlik san'atlarida ham qo`llaniladi. Gulli Girih deb ham ataluvchi murakkab naqshlar o`simliksimon va geometrik naqsh turlarining o`zaro birikishidan hosil bo`ladi.

Ma'lumki har bir naqsh namunasi o`ziga xos naqsh elementlarini yiqindisidan iborat. Naqsh elementlariga asos qilinib, tabiatda uchrovchi o`simlik dunyosi, qayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng sodda

ko`rinishlaridagi “stillashtirilgan” qoatlari olinadi. Bunda tanlangan shakl ko`rinishini naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo`shishi mumkin bo`lgan bezak shakliga keltiriladi.

Naqshda elementlarning o`zaro birikib borishi, muttanosib boqlanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi. Naqsh chizishni o`rganishda dastlab quyidagi shakllar chizib o`rganiladi:

barglar (barg elementlarini chizish)

gullar (gul elementlarini chizish)

novdalar (novda elementlarini chizish)

boqlam va sirtmoq (ularni elementlarini chizish)

marqula va kurtak (uning elementlarini chizish)

madoqil elementlarini chizish

gajak va jingalak elementlarini chizish

bofta va shkufta elementlarini chizish

Barglar islamiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko`rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina atirgul, uzum va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyalarini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar. Barglar oddiy va murakkab turlarga bo`linadi: Oddiy barglar-bodom bargi, arra tishli va to`lqinsimon barg ko`rinishlarida uchraydi.

Gullar-islamiy naqsh elementi bo`lib, naqshlarga tarqil pardoz berilganidan so`ng yanada ko`rk va xusn baqishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham beqisob turlari mavjud bo`lib, o`ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko`rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, ko`vachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizgul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda - o`simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. U gul, barg va quncha kabi boshqa elementlarini o`zaro boqlab biriktirib to`ldiradi. Namoyon

ruta, morpech, munabbat turunj va turli murakkab naqsh namunalaridan novda elementlari yakka va qo`sh bandlarda uchraydi.

Boqlam va sirtmoqlar islamiy naqsh elementlari. Novda va ramka shakllariga xos boqlovchi oddiy arqon kurtak va sirtmoq boqlami turlarini eslatadi .

Tanab-naqsh namunalaridagi asosiy shakl yo`llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, madoqil, bodom, qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Tanob bafta, shkufta, boqlam elementlari bilan boqlanadi.

Marqula elementi ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi qo`sh chiziqli gajak, marqula naqsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan birin-ketin goqida o`rindosh sifatida ham uchraydi.

Kurtak elementi asosan bodom, qalampir, tirnoq ko`rinishlariga ega. Marqula va kurtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko`rinishlarini boyitadi.

Madoqil-islamiy naqsh elementi madoqil lola, tumor, uchbarg ko`rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Madoqil mehrob namoyon naqshlarining yuqori qismlariga xos elementdir.

Gajak va jingalak-islamiy naqsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzum, karnaygul, pechak o`t novdalarini stilizatsiyalashtirilgan qoldagi ko`rinishlaridir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va islamiy naqsh birikmalarida uchraydi.

Bofta islamiy va murakkab naqshlar elementi. Naqshdagi patnis tanob, mehrob, savat ko`rinishigagi ramkalarni yurak shaklidagi elementlari bilan boqlaydi. Bafta naqshlarda boqlovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bofta islamiy ruta va Girih hoshiya naqshlarining ham o`ziga xos elementlaridan biridir.

Shkufta – islamiy naqsh elementi, qisqacha shkift deb ham ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak-gajak ko`rinishlarida o`zaro boqlaydi. Naqshlarda shkufta va bafta elementlari to`q ranglarda bo`ladi.

Naqqosh tabiiy shakllarni stillashtirib – qayta ishlar ekan u element va rang tuslariga oid ramziylik falsafasini ham keng yoritib berishga intiladi.

“Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o`z orzu-umidlarini, muqabbatlarini,

tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ustalar inson ruqiyatini juda chuqur va har taraflama o`rganib, uylarini ajoyib naqshu nigorlar bilan bezaganlar.

Naqshlardagi mazmunlarni anglash uchun naqshning har bir elementi va ranglarini ramziy alifbosini o`rganish kerak.

Ramz nima o`zi? Ramz arabcha “ishora qilmoq” so`zidan olingan. Ramziylik olam va odam ruqiyati, tabiat, voqelik, qayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

Naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.

Teng tomonli uchburchak-tik turgan holati hayotining boshlanishi. Teskari turgan holati esa hayotining oxirini bildiradi.

To`qri to`rtburchak – ishonch.

Romb – ayol, ya'ni yor ramzi serfarzandlik.

Yarim aylana – baxt.

quyosh – qayot ramzi.

Bulut olov, - qoliblik ramzi.

Bodom – baxt-iqbol.

Barg – baqorgi uyqonish.

Zirk guli (gulsafsar) – osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor – ezgulik, to`qchilik.

Oygul – baxt-iqbol ramzi.

Olma – munabbat ramzi.

Isiriq – yomon ko`zdan asrash ramzi.

Atirgul – go`zallik ramzi.

Sher – mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Bulbul – sadoqat.

Xumo – baxt keltiruvchi qush.

Boshqush – baxtsizlik, vayronalik.

Baliq – mashxurlik ramzi.

Oq kabutar – tinchlik.

Oxu – go`zallik, noziklik

Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish

Oddiy naqsh namunalarini o`rganishda, o`zbek xalq ustalari qadimdan qo`llab kelayotgan naqsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orqali yangi naqsh elementlarini hosil qilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish maqsadga muvofiqdir.

“har bir insonning o`z ismi bo`lganidek, har bir naqshning o`ziga xos nomlari bo`ladi. Naqshning nomlanishi uning xarakterli o`rni bilan belgilanadi.

har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o`ziga xos nomlari va ma'nosi bo`ladi.

har qanday naqsh oddiy elementlarning ma'lum qoya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o`zaro uyqunligi va muttanosibligi bilan hosil bo`ladi. Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi”. Shuningdek naqsh chizishni barcha qonuniyatlarini yaxshi o`zlashtirib borishda, mavjud yo`l ichidagi o`nta oddiy naqsh namunasini aslidek yoddan chizib o`rganish kerak bo`ladi.

Oddiydan murakkablashib boruvchi mavjud o`nta hoshiyasimon naqsh namunalarini taniqli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Aytishlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o`quv ishlab chiharish kombinatining naqqoshlik bo`limi o`qituvchisi usta Olimjon Qosimjonov va bir-oz keyinroq, Jalil Xakimovlar, boshlanqich dars mashgulotlarni to`rtta naqsh namunasi yordamida o`rgatar ekanlar.

Ayrim taxminlarga ko`ra bu naqsh namunalarini yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning o`zlari yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo`lmish mohir pedagog naqqosh usta Maqmur To`rayev oddiy naqsh namunalarining yana qo`shimcha oltita nusxasini yaratib, nomlagan.

Mavjud o`nta oddiy naqsh namunalarini boshqa o`ymakor ustalar, yoqoch va ganch o`ymakorliklariga oid, o`yish jarayonlariga mos ravishda, qo`shbandli naqsh qolatlarida chizganlar. Oddiy naqsh namunalarining nomlanishi va chizilishi tartibi quyidagicha:

“Bodom guli” (1 gul)
“Yak raftor” (2 gul)
“Bargli raftor” (3 gul)
“Bargli islimli” (4 gul)
“Aylana shukuftali islimiy” (5 gul)
“Mehrob islimi” (6 gul)
“Islimi bafta” (7 gul)
“qo`sh mehrobli islimi” (8 gul)
“Patnisgul islimi” (9 gul)
“Islimi shkufta” (10 gul).

Biz dastlab oddiy naqsh namunalarini katak daftariga bosqichma-bosqich chizishni mashq qilishimiz kerak. Ma'lum tajribaga ega bo`lganimizdan so`ng, mazkur naqshlarni rasm daftariga ikki nusxada qalamda va bo`yash uchun aloqida tarzda chizamiz.

Oddiy va boshqa naqshlarning mukammal tuzilishi jiqatlariga nazar tashlasak, ulardagi shakl yasovchi asosiy yo`l harakatlarini yoki to`ldiruvchi gul, novda elementlarining har qaysisi o`z qolicha kompozitsion echimlardan iborat. Misol, “qo`sh mehrobli islimi”. naqshda mehrob shaklimiz yakka bandli shakl yasovchi vazifasini o`taydi va gul novda, kurtak elementlari esa naqshning zaminini to`ldirib turadi. Mehrob shakli o`z qolicha novda gul boqlanishlari bilan aloqida naqsh tasvirlarini anglatishi mumkin.

Rangshunoslik texnologiyasi va ranglarning naqqoshlikda tutgan o`rni

Ranglarning kishi ruqiyatiga ta'siri o`ziga xosdir. Ranglarni tabiatda insonlarning o`zlari tanlaydilar. Rang tuslari orqali kishilarning xarakteri kayfiyati va boshqa xususiyatlarini belgilash mumkin. Tabiatan issiq rang tuslarini yoqtiruvchi kishilar jo`shqin to`pori, qiziqqon xarakter egalari sanalsa – sovuq rang ixlosmandlari aksincha muloyim, bosiq cheqrali kishilardir. Ranglarning inson ruqiy olamiga ta'sirini ko`rib chiqaylik:

Yashil rang tinchlantiradi.

Sariq rang tetiklashtiradi.

Qizil rang kayfiyatni ko`taradi.

To`q havo rang ishtaqa ochadi.

Zarqaldoq rang e'tiborni tortadi.

Ranglar mazmuni

Yashil rang – ona tabiat ramzi.

Ko`k rang – moviy osmon.

Qizil rang – qalaba, shodlik.

Sariq rang – muqaddaslik.

Qora rang – motam.

Zangori – oliy e'tiqod.

Oq rang – tozalik, baxt va omad ramzi.

Naqqoshlikda kompozitsiya qonuniyatlaridan tashhari uni bo`yashda qo`llaniladigan bo`yoq turlari, ularning o`ziga xos xususiyatlari, rang koloriti, hamoqanglik va shu kabilar muhim ahamiyatga ega.

Xalq ustalari tomonidan yaratilgan amaliy san'at namunalarini kuzatar ekanmiz, ular biron-bir rang tuslari ta'siriga ya'ni rang kaloritiga bo`ysundirilganini ko`ramiz. Shunga asosan havorang, yashil rang, jigar rang va shu kabilar muqitiga xos naqsh kompozitsiyalari ishlanadi.

Mo`jaz bezatilgan buyumlardan tortib katta-katta bino va inshoatlar asosan rang va chizgilar jilosida nechoqlik nafis va uluqvor ko`rinadi.

har bir voqa va naqqoshlik maktablarining o`ziga xos rang kaloritlari mavjud bo`lib, Xorazm naqqoshlari havo rang, qo`qon ustalari qizil-zangori, Toshkent naqqoshlari esa to`ti yoyi va och jigar rang tuslarida ijod qiladilar.

Albatta naqqoshlik san'atida oddiy chiziqlar moqiyatini rang tuslari ochib beradi. Naqshlarni bo`yashda zamin va shakl oraliqlariga to`q rang, gul novda va boshqa elementlariga och ranglar beriladi. Ranglash bosqichlarida iliq va issiq ranglar aralash qo`llanilmaydi. Aksincha, naqsh namunalarining umumiy talqinlariga e'tibor beriladi. Ma'lumki, iliq ranglar tarkibiga: qizil, qirmizi, gulnor, sariq, zarqaldoq ranglar kiradi. Bu kabi ranglar issiq havo, quyosh

taftini, sovuq ranglarga esa salqinlik, suv, muz holatini anglatuvchilar kiradi. Yashil ranglar iliq-issiq ranglardir.

Atrof-muqitdagi narsalar tushayotgan yoruqlik ta'siri ostida o'zlarining rang tuslarini tez-tez o'zgartirib turadi. Masalan, quyosh nuri yon tomondan yoritib turgan maysalarning rangi sarqish-yashil ko'rinishda bo'lsa, xuddi shu maysaning soyada turganlari bir oz to'qroq yashil rangda ko'rinadi. Naqqoshlikda ham ranglarning ana shu xususiyatlarini qisobga olgan qolda ish ko'rish lozim bo'ladi. Agarda ishlanadigan naqsh yoruqroq joyga qo'yiladigan yoki ishlanadigan bo'lsa, rang tuslarini bir oz to'qroq olish mumkin. Aksincha, bir oz yoruqlik nurlari kamroq tushadigan erlarga joylashtiriladigan bo'lsa yoruqroq ko'rinishdagi rang tuslaridan foydalaniladi.

Naqqoshlikda suv va moybo'yoqlardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida rangshunoslik borasida ham kerakli bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi.

Tayyor naqsh namunalari bo'yashda bir rangning bir necha qil tuslari qo'llaniladi. Bunda oq bo'yoq asosiy o'rinni egallaydi. Akvarel bo'yoqlari bilan qoqozga ishlangan naqshlarni bo'yayotganda esa suv-rang tusini ochlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga egadir.

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo'yoqlarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba'zi bir eqliyot choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Chunki, to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa rang aralashtirilsa uning tusi ham to'qlashadi. Bu esa o'z navbatida rang tusining tiniqlik darajasiga ta'sir etadi. Ayniqsa, moy bo'yoqlarida ishlangan naqshlarning tuslari keyinchalik to'qlashib, qorayib ketishga moyil bo'ladi. Agarda naqshlar uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa ularni iloji boricha ochiq rang tuslarida bo'yash tavsiya etiladi. Umuman olganda naqsh sirtiga iloji boricha quyosh nuri tushmaydigan bo'lishi lozim. Shuningdek, nam havo yoki suv tegishi naqshning uzoq muddatga saqlanishi uchun jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni qisobga olish kerak bo'ladi.

Badiiy naqqoshlikda quyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko`lamda foydalaniladi:

Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to`q zangori, och havo rang, havo rang, to`q havo rang, moviy ko`k).

Sariq ranglar va ularning tuslari (och sariq, sariq, to`q sariq sarqish, limonli sariq, kadmiyli sariq, sarqish zarqaldoq).

qizil ranglar va ularning tuslari (och qizil, qizil, to`q qizil, och va to`q qirmizi, qirmizi, alvon rang, och va to`q zarqaldoq, zarqaldoq ranglar va boshqalar).

Yashil rang va ularning turlari (och va to`q yashil, yashil, sarqish yashil, to`tyoyi (to`taki), zaynovi (chiroyli o`tkir rang yashil), zumrad rang, ko`kish yashil).

Binafsha rang va ularaning tuslari (och va to`q binafsha , binafsha siyoq rang, ko`kish binafsha qizqish binafsha va shu kabilar).

Jigar ranglar va ularning tuslari (och va to`q jigar rang, jigar rang, qizqish va sarqish jigar rang, qoramtir jigar rang va boshqalar).

qora rang va uning tuslari (och va to`q qora, qora och va to`q kul rang va shu kabilar).

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan ranglar va ularning tuslari ko`pincha badiiy naqsh koloritini belgilashda katta o`rinni egallaydi. Shunga ko`ra rang muqiti biror bir aniq rang tusi koloritiga bo`ysundiriladi.

Oddiy naqsh namunalarini bo`yash va pardozlash.

Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko`zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamoqangligi va o`ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin.

naqshda rang uyqunligiga erishish katta san'atdir. Rang uyqunligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o`zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyqunligini ko`ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo`lmasligini, qaysi ranglar yonma-yon kelsa, rang uyqunligi paydo bo`lishini

bilish kerak. Ranglar uyqunligi to`qri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo`llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo`jizalar yaratadi

Xalq ustalarining ijodiy ishlarini qaysi naqqoshlik maktabiga mansub ekanligini naqsh kompozitsiyasi va rang tuslari orqali tezda aniqlab olish mumkin. Masalan: Xorazm naqshlarida havo rang yashil tuslarni ko`plab uchratish mumkin. Naqsh elementlari esa spiralsimon islmiy naqshlarni tashkil etadi. Farqona uslubi esa yashil ko`k, qizil rang tuslarining bir oz to`groq darajada aralash uyqunlashuvchi bilan xarakterlidir. Toshkent naqshlari och yashil – havo rang, to`ti yoyi hamda och jigar rang tuslarda tovlanadi.

Naqsh elementlarini Ovro`po bezakchilik tuslariga xos oltinsimon jigar rang koloritlarida turlash usullarini birinchi bo`lib naqqoshlik san'atiga usta Toir To`xtaqo`jaev kiritgan .

Mohir pedagog naqqosh usta Maqmur To`raev o`z ustozlari J.Xakimov va T.To`xtaho`jaevlarni xotirlab shunday deydilar:

“Naqqoshlik san'atini seqirgarlik san'atiga qiyosligim keladi. Naqqosh turli rang tuslari orqali naqshdagi jonsiz chiziqlarni kuylata oladi. Ustozlarim Jalil Xakimov va Toir To`xtaqo`jaevning ijodlarini olaylik. Jalil Xakimovning ijodiy uslublarini mumtoz klassik yo`nalish deb olsak, Toir akaning naqshlarida lirikani qis qiladi kishi”.

Naqqoshlikda ranglar naqsh tuzilishi va uslublariga xos ravishda tovlanadi. Shuningdek, naqsh ishlanadigan buyum yoki yuzaning maqsad-vazifalari, qajmli, balandligi va kompozitsion echimlari aloqida e'tiborga olinadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida ustalar (ayniqsa bino bezaklari) masofani ranglash va pardoqlash bosqichlarini ham qisobga oladilar. Bu esa naqshdagi rang tuslarining teng tarqalishi – zamin shakl va gul elementlarining oraliqlaridan yaxshi ko`rinishiga sabab bo`ladi.

Ma'lumki naqshda har bir element shakl va rang tuslarining o`z nomlari, ramziy ma'nolari mavjud. Naqshlarni ranglash va pardoqlash bilan ularning go`zalligini, mazmun va ma'nolari unsiz tovushlar orqali ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar

asosan bitta rang koloritiga bo`ysungan qolda turlanadi. Naqshni ranglash bosqichlari quyidagicha:

Naqshning zaminini (tagini) ranglash.

Naqshdagi shakl oralarini ranglash.

Naqshning gullari, barglari va bandlariga rang berish.

Naqshning shkufta va yo`l chiziqlarini ranglash.

Naqshga siyoq qalam va tarqil berish.

Naqshning oq bandlari va obisini tortish

Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo`yamaslikka aloqida e'tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir-biri bilan tutashtirilgan qolda bo`yalmasa, siyoq qalamda berilgan pardozi ko`ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go`zalligi va chiroyiga putur etadi.

Naqshlarni asosan guash va akvarel bo`yoqlari yordamida bo`yash maqsadga muvofiqdir. Ranglarning xilma-xil tuslarini tayyorlashda guashning oq bo`yoqi etakchi vazifani o`taydi. Naqshni bo`yash uchun bo`yoqlar chinni yoki plastmassa idishchalarda tayyorlanadi. Ayniqsa, maxsus chiharilgan kolerlarni bir biriga qorishtirishda yoqoch kurakchalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda har bir rang tusi uchun aloqida yoqoch kurakcha qo`llaniladi. Bu o`z navbatida bo`yoqlarni ifloslanib ketishdan saqlaydi. Tayyorlangan bo`yoq judayam suyuq bo`lsa, unda naqsh yuzasi bir tekisda bo`yalmaydi. Guash bo`yoqini qoqoz satqiga qalin va quyuq surtish mumkin emas. Chunki qalin bo`yoq qavati quriganidan so`ng, yorilib ko`chib ketadi.

Naqshning zamini – foni uchun rang tayyorlashda uning tusi bir oz to`qroq olinadi. Sababi, to`q rangli zaminda boshqa engil, ochiq tusdagi ranglar yanada tiniq va ravshan, go`zal bo`lib ko`rinadi. Naqshning shaklini ifodalovchi ko`rinishlarni ajratib bo`yashda o`rtacha to`qlikdagi yoki ochroq tusdagi ranglardan foydalaniladi. Naqshdagi “Bofta” kabi boqlovchi elementlar to`q ranglar yordamida bo`yalsa, gul, quncha, barg elementlari esa och ranglarda tuslanadi.

Naqsh namunalarini bo'yashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e'tiborni haratish lozim bo'ladi.

Garmoniya – grekcha so'zdan olingan bo'lib, munosiblik, boqliq bo'lish, eng go'zal boqlanish degan ma'nolarni anglatadi.

Faktura – lotincha so'z bo'lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir.

Kontrast – fransuzcha so'z bo'lib, keskin farq, farqlanish ma'nosida qo'llaniladi. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin.

Naqshni bo'yashdan oldin tayyor bo'yoq oq qoqozga surtib, sinab ko'riladi. qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo'lsagina, u bilan kerakli joylar bo'yab chiqiladi. Bunda naqsh namunasidagi mazkur rang tusi bilan bo'yaladigan qismlarga etadigan miqdorda bo'yoq tayyorlab olinadi. Agar bo'yoq etmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo'yoq tusi boshqacha bo'lib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko'rinishiga putur etadi.

Siyoq qalam – eng nozik qil qalam bo'lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Siyoq so'zi – qora rang degan tushunchani anglatib, qora rangda naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish demakdir.

Tarqil – gul, quncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib berishdir.

2.2. Naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asoslari

Usta naqqosh, musavvir, shoir yoki sozanda biron-bir yangi asarni yaratarkan, albatta tabiatdan ilqom oladi va undagi mavjud go`zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi. Ma'lumki, o`zbek xalq amaliy bezak san'atining qaysi bir turi bo`lmasin uning zaminida naqsh elementlari – kompozitsiya asoslari yotadi. Mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilingan qolda joylashtirish ya'ni kompozitsiya tuzish uziga xos bilim va malakaga ega bo`lishni talab etadi Birgina “Bodom”, “qalampir” nusxalari shaklidan naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo`zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o`ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin.

“O`zbek xalq ustalari qadimdan qo`llab kelayotgan ko`plab naqshlar, tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo`lishiga haramasdan, o`ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o`zidan olingan. O`simliklar faqat bir tomonga harab o`sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga harab teskari o`sayotgandek tuyuladi. Lekin, novdada barglar bo`lib, bir xil yo`nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o`z aksini topgandir. Usta chizadigan naqsh shunchaki qoqoz betini to`ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan qolda manzara tasvirini chizishdan iborat”.

Kompozitsiya – lotincha so`z bo`lib, joylashtirish, qurish, tuzish degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh namunasiga ko`ra uning elementlari qoqoz yuzasida bir-biriga boqliq qolda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda avval ko`plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o`rnini almashtirish, qo`shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular

kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o`rtasidagi o`zaro boqliqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo`lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo`ysundirishdan iborat.

Kompozitsiyada naqsh yaratishning shunday qoidasini simmetriya, assimetriya, ritm, markazni topish, stilizatsiya, muvozanat, elementlarning o`lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Naqqoshlikda ko`proq quyidagilarga amal qilinadi:

naqsh namunalaridagi chiziqlar harakatning stilistik birligiga erishish.

Naqsh namunalarida yuza va shakl oraliqiga berilayotgan ranglar soni qanchalik ortsa, kompozitsiya yanada chiroy ochib, go`zallashib boradi. Naqshning shakl yasovchi yo`l elementlari va rang tuslari kompozitsiyaning nomlanishida katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ijod orqali biz yangi naqsh namunalarini yaratar ekanmiz, ranglar jozibasi va yorqinligini ham aloqida qis eta boshlaymiz. Chunki, kompozitsiyaning mazmuni va ma'nolariga mos ranglarning o`zaro birikuvi, naqshning nafisligini oshiradi.

Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasi va ramkasiga ham boqliq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o`lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli ramkaga olinadi. Naqsh ramkalarini tuzishda elementlar ko`rinishini yo`l aylana, chorsi va qokazo shakllarning ichiga joylashtiriladi. Masalan, mehrob, lola, patnis, ishkom, aylana mehrob elementlarini olsak. Bu oddiy naqsh elementlarini bosqichma-bosqich, yo`l, to`rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyalarni quyidagicha nomlashimiz mumkin:

mehrob ko`rinishigagi shakllar – “mehrob hoshiya”, “mehrob patnis”, “mehrob aylana”.

Lola ko`rinishigagi shakllar – “lola hoshiya”, “lola patnis”, “lola aylana”.

Patnis ko`rinishigagi shakllar – “patnis hoshiya”, “oddiy patnis”, “patnis aylana”.

Ishkom ko`rinishigagi shakllar – “ishkom hoshiya”, “ishkom patnis”, “aylana

ishkom”.

“aylana mehrob ko`rinishigagi shakllar – “aylana mehrobhoshiya”, “aylana mehrob patnis”, “aylana mehrob doira” naqsh kompozitsiyalari va boshqalar. Yuqorida aytib o`tganimizdek, naqshlarni – shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, “mehrob lola” – ko`rinishi ifodalangan yo`l ichidagi naqsh shakli odatda “hoshiya naqshlar” deb atalganligi sababli “mehrob hoshiya” deb nomlanadi. To`rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o`xshash bo`lganligi sababli “mehrob patnis” shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil etadi va shunday nomlanadi. Aylana – gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa “aylana mehrob” naqshi deya ataladi.

Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka (1), qo`sh (2) va bir necha bandli ramka ko`rinishlarida chizish mumkin. Bunday turdagi ko`rinishlar “naqshlar rejasi” deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh elementlarini ana shu kabi turli qoliplar ichiga joylashtirib hosil qilinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o`rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko`chiradilar. Shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma'muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo`llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi.

Naqsh elementlarini yangi nusxalarini yaratish, ularni yoddan chizish borasida tabiat qo`yniga sayoqatga chiqish va unda nazariy hamda amaliy bilim, malakalar asosida stillashtirish usullari bilan bevosita shuqullanish kerak. Yana ramziylik va qayta ishlashga doir maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora fotosuratlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Boshlanqich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzishda dastlab buyum yoki yuza sirtini, uning o`ziga xos o`lchamlarini diqqat bilan ko`zdan kechirib naqsh shaklini “hayolan” tanlab olamiz. Albatta bu naqsh elementlari biz qachonlardir kuzatib yoki o`zlashtirib olgan naqsh bo`laklaridan iborat. Bunda biz fikr yuritishimiz orqali ish tajribalarimiz, tasavvur, shuningdek xotira zaqiralarimizda qanchalik ko`p naqsh elementlari mavjud bo`lsa, shuncha ko`p ajoyib naqshlar tuzishimiz mumkin bo`ladi.

Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari 2G`1, 4G`2, 6G`1 va xokazo bo`laklar (taqsim) asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko`chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar meqnatini ancha engillashtirib kelgan.

Sodda naqsh kompozitsiyasini ixtiyoriy ravishda quyidagicha tuzish mumkin: shakl yasovchi reja-qolip ramkasi 4G`1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlari yakka, qo`sh va bir necha qo`shimcha chiziqlardan iborat bo`lishi mumkin. Patnis ko`rinishigagi bu shaklga bafta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo`sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo`lishi mumkin. Mashqlar davomida chiziqarning harakati ravon bo`lishiga, shakl chiziqarining silliq, sinmasdan chizilishiga aloqida e'tibor haratiladi. Yakka band yo`lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan boqlanadi. Endi yuza bo`shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga boqlangan qolda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo`yicha harakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy boqlanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash orqali kompozitsiya mazmuni tugal echimini topadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasini patnis ko`rinishigagi naqshlar turiga xos bo`lganligi sababli, "patnis islimi" deb atalishi mumkin.

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo`yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o`zaro mutanosibliqi qisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So`ng, ana shu qoralama asosida (lozim topilgan taqdirda ayirish o`zgartirishlar kiritish orqali) har bir elementga aloqida ishlov berilgan qolda uning nusxasi kerakli joyga ko`chiriladi va yaxlit naqsh tuziladi.

Naqshda kompozitsiyalar asosan yakka va qo`sh bandli novdalar ishtirokida tuziladi. Yana bir boshqa naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun mehrob ko`rinishigagi naqsh elementlarini tanlab olamiz. Mavjud mehrob elementini

yo`l, to`rtburchak va aylana shakllari ichiga joylashtiramiz. Ushbu mehrob shakli kompozitsiyada yasovchi (asosiy shakl) vazifasini o`taydi. Navbatdagi chiziluvchi barcha naqsh elementlarini to`ldiruvchi elementlar deb atash mumkin. Chunki ular (novda, barg, gul, kurtak, shkufta va qokazo) naqsh yuzalarini to`ldirib turadilar. Endi mehrob ko`rinishigagi shakllarga novda harakati kiritiladi. So`ngra, shakl yuzalariga mos ravishda lola guli hamda kurtak naqsh elementlarini chizamiz. Bunda o`ziga xos ko`rinishdagi yangi naqsh nusxalari hosil bo`ladi. Demak, kompozitsiyalar to`rt bosqichda, to`rtta naqsh

elementi yordamida tuzildi. Ushbu naqsh kompozitsiyalarini yo`l ichiga tuzilganiga ko`ra “mehrob hoshiya”, to`rtburchak shakliga “mehrobli patnis” va aylana uchun “mehrob aylana” naqshlari deb nomlanadi.

2.3. Ashyolarga badiiy ishlov berish

Xalq amaliy bezak san'ati o`zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'analarga niqoyatda boy. Naqqosh ustalarning ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o`z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllardan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Insoniyat o`zi uchun zarur hisoblangan barcha kiyim-kechak, ro`zqor va uy-ro`zqor anjomlarini doimo takomillashtirib, bezatib keladi. Shu bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jiqozlarning o`z bezatilish usullari, materiallarga ishlov berishdagi o`ziga xos bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berib yasatilgan buyumlar kishilarga estetik zavq baqishlab, qayotga bo`lgan munabbatlarini yanada oshiradi.

Ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yoqoch o`ymakorlik buyumlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boyliklari, ma'naviy qadriyatlari qisoblanadi. An'anaviy o`zbek naqqoshligida nafaqat binolarni bezash, balki yoqochdan yasalgan buyumlarga ishlov berish ham yaxshi rivojlangan. Bularga mebellar, sovqabob buyumlar, musiqa asboblari va uy-ro`zqor buyumlari ham kiradi. Shuningdek, quticha, xontaxta, kursi, stol-stullar, tuzdon, non idishi, sabzi taxta, qoshiq, lagan, sandiq va xokazolar shular jumlasidandir.

Uy-ro`zqor buyumlari va jiqozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushirish, pardozlash kishidan anchagina malaka va ko`nikmalarga ega bo`lishni talab etadi. Zero, yoqoch buyumlarini naqshlashda xalq ustalari erishgan yutuqlar beniqoya kattadir. Ularning ijod namunalari respublikamiz va chet-ellarda turli muzey, ko`rgazma zallarida, badiiy salonlarda keng namoyish etilib kelinmoqda. Ularning barchasi qaqli ravishda yuqori baqolar olmoqda. Naqsh san'atida yoqoch buyumlariga o`ta mohirlik bilan jilo bergan ustalar O.Qosimjonov, Yo.Raupov, J.Hakimov, T.To`xtaxo`jaevlardir. Shu jumladan zamonaviy naqqosh ustalarning ham ijodiy ishlari taqsinga loyiq. Ulardan Maqmur To`raev, Anvar Ilqomov,

Abdulla Akbarov, Hamidulla Isokjonov va boshqalarni misol tariqasida ko`rsatish mumkin.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini qisobga olgan qolda boshlanqich qoralama eskizlari ishlanadi. hosil bo`lgan aniq o`lchamlardagi qoralamalar asosida buyum yasaliib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

tayyor bo`lgan (yasalgan) yoqoch buyumlariga jilvirlash orqali ishlov berish.

Yuza sirtlarini bo`r va elim aralashmasi (shpaklyovka) yordamida silliqlab chiqish.

Naqsh kompozitsiyasini buyum satqiga ulgi yordamida tushurish.

Naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish.

Pardozlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo`lgan buyumning rang koloriti aniqlangach, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

Naqsh zaminini ranglash.

Naqshning gullari va barglarini turlash.

Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.

Siyoq qalam tortish.

Naqshning gullari va barglariga tarqil tortish.

Naqshning oq bandlari va obisini tortish.

Yoqoch buyumlarini naqshlashda mola, obi, siyoq qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo`yqalamlardan foydalaniladi. Pardozlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, qizil, to`q ko`k, to`q yashil, jigar rang kabi to`qroq tUSDagi bo`yoqlar yordamida bajariladi.

Yoqoch buyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli laklardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yoq va kanifoldan tayyorlangan.

Toshkent naqqoshlaridan Olimjon Qosimjonovning aytishiga ko`ra, fabrika laki ishlab chiharilgunga qadar, ustalar “egar moyi” deb atalgan lakni ishlatganlar. Bu lakning aralashmasi elim (toq o`simliklarining suvi), kunjut

moyi va kanifol bo`lgan. “Egar moyi” bo`yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yuzani darz ketishidan, emirilishidan saqlagan.

Yoqoch buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo`ladi. Jilvir qoqoz, shpatel, bo`r, duradgorlik elimi, pista ko`mir, doka, xitoy qoqozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan qallar, 1- 20 nomerli mo`yqalamlar va boshqalar.

Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, haraqay, nok, yonqoq, DSP va boshqa yoqochlar tanlanadi. Yoqoch buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo`yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo`yoq, guash, akvarel, emulsiyali bo`yoq, mineral bo`yoq, moy bo`yoq, tempera bo`yoqlari. Yoqoch buyumlarini naqshlashda eng ko`p qo`llaniladigan bo`yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo`yoqni boshqa bo`yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, guash bo`yoqlari zarur quyuklikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Yoqoch buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qoqozi bilan jilvirib chiqish kerak bo`ladi. So`ngra, unga alif moyi yoki duradgorlik elimi surtiladi. Buyum yuzasini yanada tekislash, silliqlash maqsadida maxsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so`ng, mayda donali jilvir qoqozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga axta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Buyum satqidagi naqshlar ranglanib, pardozi beriladi. So`ng u quriganidan keyin, rangsiz lak bilan qoplab chiqiladi.

Shpaklyovka naqshlanadigan sirtlarga silliqlab, tekislash uchun qo`llaniladigan maxsus quyuk massa. U bo`r (mel), yoqoch elimi, alif moyi, suv, sovun kabi moddalarni qo`shgan qolda aralashtirib tayyorlanadi. qoplama (shpaklyovka) lar tarkibida qo`llanilgan moddalariga ko`ra elimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo`shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan moybo`yoqlar ishlov beriladigan sirtlarni silliqlashda

foydalaniladi. Elimli shpaklyovka devor satqlarini pardoqlash uchun mo`ljallangan bo`lib, uning ustidan suv bo`yoqlari surtiladi.

Xoka tayyorlash: surup mato yoki dokaga chala yongan yoqoch (pista) kukuni ezib solinadi va u xaltacha tugib qo`yiladi.

Axta – ya'ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qoqoz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo`laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo`lagi chizib olinadi. So`ng, buklangan qoqoz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qoqoz qati yozilganidan so`ng esa yaxlit naqsh kompozitsiyasining hosil bo`lganligini ko`ramiz. Endi uni buyumning sirtiga qo`yib, xoka yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin.

2.4. Geometrik naqsh kompozitsiyalarini tuzish

O`zbek xalq amaliy, jumladan jaqon xalqlari san'atida Girih naqsh namunalari qadimdan ko`plab qo`llanilib, ayniqsa O`rta Osiyo xalqlarining amaliy, me'moriy va kitob bezagi san'atlarida keng rivoj topgan.

Samarqanddagi Go`ri Amir, Shoqizinda maqbarasi, Uluqbek Sherdor va Tillaqori madrasalari. Buxorodagi Ismoil Samoniylar maqbarasi, Kalon minorasi Mir Arab, Uluqbek, Devonbegi madrasalari, Xivadagi Islomxo`ja minorasi, Toshkentdagi Ko`kaldosh madrasasi kabi ko`plab tarixiy obidalarning me'moriy bezaklari ajoyib Girih naqshlari bilan bezatilgan.

Bu kabi madaniy va Ma'naviy merosimiz namunalari bo`lmish muxtasham binolarning qisht terish, koshinpazlik, xattotlik, naqqoshlik, ganch va yoqoch o`ymakorliklari hunarlariga oid bezak namunalari, girih naqshlarining oddiy, murakkab, zanjira, panjara kabi beqisob turlarini uchratish mumkin.

Girih – Forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to`qri chiziqlarning o`zaro kesishuvi natijasidagi geometrik shakllarni hosil qiladi (30-rasm).

Girih naqshlarining yakka, qo`sh va undan ortiq bandli yo`l ko`rinishlari mavjud bo`lib, simmetrik joylashuvchi bo`lak – taqsimlarga ega bo`ladi. Girihlar ma'lum tartib va qoidalar, qisob xandasa va chizmachilik fanlariga asosan chiziladi.

Geometrik naqshlarni echimlari va ularning yangi nusxalarini tuzish usullari qadimda yozma adabiyotlarda kam yoritilgan. Aniqroqi girih naqshlarini tuzish murakkabligi sababli nusxalar orqali chizib kelingan. Girih naqshlarini tuzuvchi ustalarni girihkor, katta ustalar deb atashgan.

Atoqli xalq ustalaridan usta Shirin Murodov, Toshpo`lat Arislonqulov, Abdulla Boltaevlar o`z ijodiy izlanishlari natijasida geometrik naqshlarning ko`pdan-ko`p nusxalarini yaratganlar. Ayniqsa, akademik usta Shirin Murodov yangi girih kompozitsiyalarini onsonlikcha tuzib, o`z o`rnida ustalik bilan qo`llay olgan.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940-996) o`zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar echimi to`qrisida yozib qoldirgan.

Bularda u girihni ba'zi oson yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh echimi to'qrisida yozilgan. Bu kitob qozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o'zining asarlarida Girihni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsada, bizga girih echimi to'qrisidagi ma'lumotlar ko'proq berilmagan.

Gulli girih – murakkab deb ataluvchi naqsh turi. Gulli girih islamiy va geometrik naqsh elementlarining o'zaro savatsimon aralash to'kilishidan iborat.

Murakkab naqshlarda shakl yasovchi yo'l chiziqlari naqshning asosini tashkil etib, islamiy elementlar esa shakl oralarini to'ldiradi.

Geometrik naqshlarning yakka, qo'sh va bir necha yo'lli ko'rinishlari mavjud bo'lib, shakl bo'laklari simmetrik joylashuvchi taqsim – rapportlarga ega.

Girih naqshlari panjara – to'siq degan ma'noni ham anglatadi. Xalq amaliy san'atida geometrik naqshlar naqqoshlikdagi singari ganch va yoqoch o'ymakorligi hunarlarida ham o'ziga xos ravishda ishlanadi. Tarixiy obidalarda asosan oyna to'siqlari, xonalarning havosini o'zgartirishga mo'ljallangan eshiklar tepasidagi tuynuklar (tobadonlar) ganch va yoqoch o'ymakorligi usullarida bajarilgan. Xona issiqligini saqlash maqsadida, qish kunlari panjarali to'siq yuzalariga shaffof qoqozlari yopishtirilgan.

Yoqoch o'ymakorlikda panjara to'siqlari asosan mix va elim ishlatilmay pishiq va puxta bajarilgan. Panjara shaklidagi sodda girihlar to'r kataklaridan iborat chiziqlar yordamida oson chiziladi. Panjara shaklidagi girihlarning beqisob turlari mavjuddir. Panjara girihlari yakka band chiziqlar yordamida chizilib, shu chiziqlar bo'yicha qo'sh bandli ko'rinishlari hosil qilinadi. Bunda, girih naqshlarining chiziq yo'llarini o'ng va chap tomonlariga parallel chiziqlar chiziladi. So'ngra, yakka bandli o'rtadagi yordamchi chiziqlar o'chirib tashlanadi. Girih shakllarini ko'p bandli ko'rinishlarda chizishda ularning ichki yoki tashqi tomonlariga chizib qo'shilgan chiziqlar naqshning

boqlanishi va muvozanatini buzadi. Panjara va boshqa girih naqshlarining o`zaro kesishgan joylari savat to`qish qoidasi kabi tuzilib, chiziladi.

Geometrik naqsh elementlari oddiy aylana uchburchak, to`rtburchak, ko`pburchak va egri chiziqlarning o`zaro tutashuvlaridan hosil bo`ladi. Bu elementlarni kompozitsion joylashtirish orqali istalgancha yangi girihlar tuziladi. Geometrik naqshlarni ham islimiy naqshlar singari ma'lum bo`lak-taqsimlar yordamida chizib ko`paytiriladi. Girih naqsh elementlarini quyidagicha kombinatsiyalash asosida tuzish mumkin:

Uchburchaklarni o`zaro kombinatsiyalash

To`rtburchaklarni o`zaro kombinatsiyalash

Muntazam ko`pburchaklarni o`zaro kombinatsiyalash

Egri chiziqlarni o`zaro kombinatsiyalash

Geometrik naqshlar shakl qirralariga, raxlariga harab nomlanadi. Agar girih naqshi besh qirrali yulduzdan iborat bo`lsa, besh raxli, olti yoki sakkiz qirrali shakllarga ega bo`lsa – olti, sakkiz raxli girihlar deb nomlanadi.

Chigal tugun ma'nosini anglatuvchi geometrik naqshlarning echimlarini topish va yangi usullarini yaratish ishlari tinimsiz davom etib kelmoqda. Ushbu izlanishlar natijasida girihkor usta Z.Bositxonov o`zining 300 ga yaqin yangi geometrik kompozitsiyalarini yaratgan. Girih naqshlari zamonaviy inshootlarimizni ham ko`rkiga ko`rk baqishlab kelmoqda.

Namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish.

Namoyon so`zi – ko`rinish, tugallangan degan ma'noni bildiradi. Xalq amaliy san'atida namoyon naqsh namunalaridan xalq ustalari keng foydalanib keladilar. Namoyon naqsh kompozitsiyalarida tabiat manzaralarining go`zal tasvirlari, yuqoriga intilib o`sayotgan o`simliklar dunyosining nafis ko`rinishlari aks ettiriladi. Bu kabi kompozitsiyalar tasvirida, ko`za yoki gultuvakda bark urib o`sayotgan gullar, majnuntol, anor, uzum singari stillashtirilgan o`simliklarning elementlari diqqatga sazovor.

Namoyon naqsh kompozitsiyalari asosida chorsi, palak, islimi, murakkab, girih, pushak islimi, chor kunj islimi kabi naqsh namunalari ham chizilib

kelingan. Namoyonning asosiy qismini tanob deb ataluvchi shakl yo`nalishi egallaydi. Tanob naqsh kompozitsiyasining asosiy novdasi qisoblanib, undan gul va novda elementlari o`sib chiqmaydi. Novda gul, barg va shu kabi naqsh elementlarini omuxta hamda aloqida ko`rinishni tashkil etadi.

Namoyon naqshlarida murakkab tematik ramziylikka asoslangan naqsh elementlaridan keng foydalaniladi. Namoyon naqshlari ma'lum bir tarixiy sana yoki tavallud va qutlov mazmunida ishlanilishi mumkin. Ramziylikka asoslangan tematik pannolarda davlat gerbi tasviri, paxta, buqdoq, sher, baliq, tovus shakli elementlari ham aks etadi. Bu kabi naqsh elementlari tabiiy ko`rinishdan stillashtirib olingan eng sodda tasvirdagi chizgilardir. Namoyon naqshlarini girih, mehrob, oval, to`qri to`rtburchak ko`rinishlarida ham tasvirlanadi.

Namoyon kompozitsiyalari naqqoshlik, ganchkorlik va yoqoch o`ymakorligi san'atlarida asosiy o`rinlardan birini egallab keladi. Namoyon naqsh namunalarini chizish bosqichlari:

Naqshlanuvchi yuzaning aniq o`lchamini olish;

Namoyonga shakl chizish;

Naqshning tanob shaklini chizish;

Novda gul, barg va shu kabi naqsh elementlarining shakl bo`yicha joylashtirish va xokazo.

Hosil bo`lgan namoyon naqsh kompozitsiyasini axtasini tayyorlab, kerakli yuza satqiga qoka yordamida tushiriladi. Kompozitsiya rang tuslari bilan turlanib siyoq-qalam, tarqil va yoki edirma usulida pardoqzanadi.

Namoyon tugal ko`rinishigagi mustaqil naqsh kompozitsiyadir. Namoyon naqsh kompozitsiyasi voqe'likni umumlashgan tasviriy obrazini shartli aks ettiradi.

Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning islmiy, xandasiy va ramziy turlari mavjud. Namoyon naqshlari ham band va tanob elementlaridan tashkil topib, kompozitsiya tuzilishida asosiy va to`ldiruvchi rolini o`ynaydi. Namoyon faqat girihdan ham tashkil topishi mumkin. Namoyonlar simmetrik

va assimetrik tuzilgan bo`ladi. Namoyon naqsh kompozitsiya tuzilishlari har bir voqada o`ziga xosligi bilan harakterli. Namoyonning guldasta namoyon, anor namoyon, majnuntol namoyon, mehrobli namoyon, to`p-gul namoyon, gulsafsar, chorsi namoyon va boshqa juda ko`p atamalari bor.

2.5. Naqqoshlik mashgulotlarining metodik asoslari

O`zbek milliy xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirish, bu kabi xunar turlarini yoshlarimizga o`rgatish bugungi kunimizda muxim ahamiyatlar kasb etadi. Xozirda xalq amaliy san'ati turlarini fan sifatida Oliy uquv yurtlarida xam o`ziga xos ravishda o`qitilishi diqqatga sazovor. Shuningdek avloddan-avlodga o`tib kelayotgan xalq amaliy san'atiga doir mashgulotlarning extiromu qiziquvchanlik bilan kasb-xunar kollejlari, maktab va maktabdan tashhari to`garak muassasalarida o`rgatish kuchaydi. Bu esa yosh avlodni kelgusida kasb-xunarni va xar tomonlama etuk madaniyatli kishilar bo`lib etishishlarida muxim ahamiyatga ega.

O`zbek xalq amaliy san'ati mustaqil fanlar sifatida o`qila boshlaganligidan buyon naqqoshlik mashgulotlari uchun ham ko`pgina dastur, ma'ruzalar matni, metodik ko`rsatmalar va o`quv qo`llanmalari ishlab chiqilda va ishlanmoqda.

Naqqoshlik fani dasturidan ushbu san'tning maqsad va vazifalari, qadimiyligi va kelib chiqishi tarixi, maktablari usta va shogird odobi, texnika xavfsizligi naqqoshlikda ishlatiladigan asbob uskunalar va materiallardan foydalanish, oddiy naqsh namunalarini chizish, bo`yash, rangshunoslik stilizatsiya, naqsh tuzishning geometrik asoslari kabi yana bir necha mavzular joy olgan.

Naqsh chizishni o`rgatish jarayonida o`zbek xalq amaliy san'ati bilan kengroq tanishtirib borish talabalarning dunyoharashini shakllantiradi, tasavvurini boyitadi, didini o`stiradi, ularga ma'naviy oziq beradi. Naqqoshlik mashgulotlarida quydagi tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natijalar beradi.

O`zbek milliy xalq amaliy san'ati xaqida suxbat o`tkazish.

Ustoz va shogird odobi "Ustoz shogird" an'analari asosida naqqoshshlik xunarlarini o`rgatish xaqida suxbat

Xalq amaliy san'atini ustalari bilan uchrashuvlar uyushtirish.

Ko`rgazmalar tashkil etish.

San'at va amaliy san'at muzeylariga tarixiy va zamonaviy inshootlarga ekskursiyalar uyushtirish.

Naqqoshlik mashgulotlarida plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, xar xil grafiklardan va boshqa ko`rgazmali qurollardan kengroq foydalanish mumkin. Mashgulotlarning yanada samarali o`tishi uchun yangi axborot texnologiyalarini qo`llab quydagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo`llash mashgulotlarda xalq oqzaki ijodi namunalari, usta shogird an'alaridan keng foydalanish.

Naqsh atamalarining luqaviy ma'nosini atroflicha o`rganish va boshqalar.

Naqqoshlik mashgulotlarining samaradorligini ishchi dasturining hozirgi zamon talabi darajasida bo`lishi aloxida ahamiyatga ega. Dasturda talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish, talabalar bilimiga qo`yilgan talablar xamda mavzularnin bir xil talqinda takrorlanmasligiga e'tibor beriladi.

Mashgulotlar mavzusidan namunalalar.

Mavzu.

Kirish.

Mashgulotning maqsadi naqqoshlik san'ati va uning tarixiy rivojlanishi. Naqqoshlik –xalq amaliy san'atining tarkibiy qismi. Naqqoshlik san'ati faning maqsadi va vazifalari. Naqqoshlik san'ati maktablari va ularning namoyondalari. Xalq ustalarining ijodi xaqida qisqacha tushuncha. Naqqoshlik san'ati bilan ko`rgazmali qurollar. Naqshlangan buyumlar xamda zamonaviy texnika vositalari yordamida yaqindan tanishish. Naqqoshlikka oid adabiyotlar .

Fanlararo aloqalar: Tarix, estetika, tasviriy san'at .

2-Mavzu. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom ashyolar.

Mashgulotning maqsadi: Naqqoshlik xonasini jixozlash, ishlatiladigan asboblar va xom ashyolar: qoqoz, qalam, o`chirqich, chizqich, pargor, albom, mo`y-qalamlar, bo`yoqlar, bo`yoq qorish uchun idishlar, suv idish, palitra va boshqalar. Naqqoshlikda ishlatiladigan xom ashyolar lok va bo`yoqlar

tayyorlashning qadimiy usullarini tushuntirish. Ustaxonada texnik xavfsizligi, yonqindan saqlash qoidalari.

Amaliy mashqulot. qalam va mo`yqalamlarni ishga tayyorlash. Rang tuslarini qorishni palitrada mashq qilish. qalamda turli shakl va chiziqlarni chizishni mashq qilish.

Fanlararo aloqa: Kimyo, fizika, mexnat.

3-Mavzu. Eng sodda naqsh elementlarini chizish.

Mashqulotning maqsadi. Naqshning kelib chiqishi va uning turlari. Eng sodda naqsh elementlarini xosil qilish va chizish bosqichlari. Naqqoshlikda ramziylik Naqqoshlik maktablari naqsh elementlarining o`ziga xosligi. Sodda naqsh elementlarini chizish geometriyasi. Simmetriya, assimetriya, siluet kompanovka, kompozitsiya xaqida tushuncha berish.

Amaliy mashqulot. Naqsh elementlari barglar, novdalar, quncha, gajak, bafta, tanob, madoxil shkufta, va ramziy naqsh elementlarini chizishni mashq qilish.

Fanlararo aloqa. Chizmachilik, geometriya, qalam tasvir.

4-Mavzu. Oddiy naqsh namunalarina qalamda chizish.

Mashqulotni maqsadi: Naqsh elementlarini o`zaro tenglik nisbatlarida chiroyli chizilishiga e'tibor berish. Boshlanqich naqsh kopozitsiyalarini tuzish usullari xaqida qisman ma'lumot berish. Oddiy naqsh namunalarining nomlari va tartib sonlarini yodda saqlash:

Bodom guli (1-gul)

Pechak islimi (2-gul yak raftor)

Bargli raftor islimi (3-gul)

Bargli islimi (4-gul)

Aylana shkufti islimi (5-gul)

Mexrobli islimi (6-gul)

Islimi bofta (7-gul)

qo`sh mexrobli islimi (8-gul)

Patnisgul islimi (9-gul)

Islimi shkufta (10-gul)

Naqsh namunalarini o`ziga xos qoidalariga rioya etilgan qolda chizish.

Amaliy mashqulot

Berilgan naqsh namunalarini tartib rahamlari bo`yicha. Albomga ikki nusxada chizib chiqish. Chizish davomida aniq o`lchov va joylashtirish (kompanovka) qoidalariga e'tibor berish. Fanlararo aloqa: chizmachilik, geometriya, qalam tasvir.

III. Xulosa.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, ularning o'ziga xos tomonlari, ularni yaratgan ustalarimiz nomlari asta sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'tini ko'z qorachigidek saqlash va turlardan foydalanish hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biridir.

Naqqoshlik xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy ananalari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bogliqligini, an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'gilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsaga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi.

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qhlda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'anaviy va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan yordam ko'rsatildi. Shuningdek yana "Xalq san'atining noyob turlarini va buyumlarni yuksak badiiy nusxalarni tayyorlashda an'analarni saqlab qolish hamda bu ish ko'nikmalarni yoshlarga sindirish. Mohir ustalarni tayyorlashda "Usto shogird" maktablarni tashkil etish bayon etilgan". Unga amal qilgan holda Buxoroda "Milliy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlatirish markazi "Usto" hunarmandlar uyushmasi viloyat bo'linmalari tashkil qilindi. Ularning sayi-harakatlari bilan Buxoroda qator milliy hunarmandchilik turlari qayta tiklandi. Ana shular orasida naqqoshlik san'ati ham bor.

Naqqoshlik san'atining an'analari o'ziga xos yo'nalishlari mavjud bo'lib, maxobatli naqqoshlikda bino va inshootlarni ichki, tashqi qismlari bezatilsa, dekarativ qismlari naqqoshlikda esa kichik hajmdagi yodgorliklar buyumlari ishlanadi.

Men ham ushbu malakaviy bitiruv ishini shu qadimiy san'at turini chuqurroq o'rganish va uni qo'llashga bagishladim.

Malakaviy bitiruv ishini bajarish jarayonida bu san'atni anchagina sirlaridan boxabar bo'ldim va qunt bilan o'rganishga harakat qildim. Kelajakda ijodiy pedagogik faoliyatimda ulardan unumli foydalanaman.

IV. Tayanch tushuncha va atamalar

Axta – naqshning maxsus qoqozga chizilib, naqsh yo`llari igna bilan teshilib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan nusxasi. Xorazm ustalari axtani ulgi deb ataydilar.

Aylanma islimi – uzluksiz aylanib davom etadigan o`simliksimon naqsh. Xorazm naqshlarida uchraydi.

Andaza – o`lchov, trafaret, shablon.

Arxitektura naqqoshligi – bu ikki turdan iborat: a)devor va shiplarga to`liq dekorativ naqsh berish, b)monumental naqqoshlik.

Axromatik ranglar – oq, kul rang va qora ranglarga o`xshab ko`rinuvchi ranglar.

Band – islimi naqshlardagi gul novdasi.

Bandii Rumi – bir bandli o`simlik shakllari tasvirlangan naqsh.

Barg – bargsimon naqsh elementi.

Bargak – bargga o`xshash o`simliksimon naqsh.

Bargi bodom – bodom bargsimon naqsh elementi, u paxta chanoqiga ham o`xshaydi.

Bargi shiguft – naqsh elementi, ochilib turgan gul bargiga o`xshatib chizilgan.

Bodom gul – bodom danagisimon naqsh elementi

Bofta gulli islimi – o`simlik elementlaridan tuzilgan dona gulli naqshlarning bir turi.

Bofta – naqshlardan aylanib o`tib, tanob singari hosil qilingan shakl.

Gajak – gajaksimon qayrilgan naqsh.

Gajak gul – naqsh elementi, ikki tomonlama gajagi bor.

Gardish – doiralardan tashkil topgan, ritmik joylashgan naqshlar kompozitsiyasi.

Gardish guli – gardishga (aylanma) ga o`xshatib solingan naqsh.

Geometrik ornament – naqsh turi, har xil geometrik shakllardan tuzilgan.

Girdob – aylana naqsh.

Girih – geometrik shakllardan tuzilgan naqsh. Chigal tugun, qandasiy naqsh.

Guash – elimli bo`yoq turi, suvda eriydi. Guash ustidan boshqa bo`yoqni surish mumkin.

Gulzori iroqi – murakkab o`simliksimon elementlardan tashkil topgan naqsh.

Gul islami madoqili yakraftor – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan doqil naqshi.

Gul islami madoqil duraftor – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan ikki qo`sh madoqil naqshi.

Gul islami chor madoqil – to`rt madoqilli o`simliksimon naqsh.

Gul – muxja – kurtaksimon naqsh.

Guli sadbarg – bodom bargi va mevasimon naqsh elementi.

Guli qaft rang – etti rangli gul naqshi.

Guli raftor – chiziq atrofida uzluksiz shaklda solingan “guli yakraftor”, “guli seraftor” naqshi.

Davra – to`garaksimon shakllardan tashkil topgan naqsh kompozitsiyasi.

Davra bargak islami – bargli o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan doira.

Davra islami chorbarg – o`simliksimon naqsh bilan to`ldirilgan doira. To`rt bargli o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan doira.

Jilvir qoqoz – yuzalarni silliqlash va tekislashda qo`llanadigan qoqoz.

Jilo berish – yaltiratish, silliqlash.

Jingalaklar – ayrim naqsh elementlarini o`zaro boqlaydigan va bo`sh joylarni to`ldirib, naqsh uchun satq paydo qiladigan element.

Jiyak – ensiz yo`lli buyumlarning chetini bezatish uchun ishlatiladigan naqsh.

Zarqal – oltin suvi yurgazilgan; oltin eritmasi, oltin kukuni.

Zeb berish – bezatish, pardozlash

Zeq – qirra

Ziy – qirqoq.

Islimi arabi – islami naqshning bir turi, arab naqqoshligidan olingan.

Islimi barg – islami naqshi uchun ishlatiladigan maxsus barg.

Islimi bofta – kompozitsiyaning asosiy chiziqlari bir-biriga to`qilib ketgan naqsh.

Islimi davron – motivi bir doira ichida aylangan naqsh.

Islimi doira – turlicha naqshlar bilan to`ldirilgan doira chiziqlarning bir-biriga tutashuvidan hosil bo`lgan naqsh.

Islimi zanjira – chirmashtirib, o`simliksimon zanjiraga o`xshatib ishlanadigan naqsh.

Islimi madoqil – o`simliksimon elementlardan tuzilgan murakkab naqshning bir turi.

Islimi mehrob – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan mehrob.

Islimi murakkab – tanob, barg, band barglari bir-biri bilan nafis chirmashib ketgan o`simliksimon murakkab naqsh.

Islimi mehrob – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan mehrob shaklidagi turi

Islimi namoyon – mehrobga o`xshagan naqsh, ichi naqsh elementlaridan tuzilgan har xil kompozitsiyalar bilan to`ldiriladi.

Islimi obi – serbarg va sershox, qoyatda nozik chiziqlardan iborat.

Islimi patnis – patnis nusxa naqsh.

Islimi – qo`shtanob – atrofi gul bilan bezalgan, uzluksiz ikki muzoviy chiziqdan iborat islami naqsh.

Islimi hoshiya – islami kompozitsiyalarining chetlariga, hoshiyasiga ishlangan naqsh.

Issiq ranglar – qizilga yaqin (och va to`q qizil, jigarrang, sariq va q.k) ranglar.

Interer – binoning ichki bezagi.

Konrakt – ranglarning boshqa ranglar ta'sirida o`zgacha tus kasb etishi (foni och bo`lsa, rang to`qroq tuyuladi, fon rangdan to`qroq bo`lsa, rang yorqinlashadi).

Koler – bo`yoq rangi, uning tusi to`qligi.

Lola islami – o`simlik elementlaridan tuzilgan lola shaklidagi naqsh.

Lola hoshiya – engsiz buyumlarning chetiga ishlanadigan lola shaklidagi naqsh.

Lola zanjira – buyumlarni naqshlashda yoki kompozitsiyaning chekkasi va o`rtasini bezashda qo`llanadigan naqsh elementi.

Madoqil – 1. Uchburchaksimon chiroyli naqsh. 2. Islimi naqsh kompozitsiyasida chizish nuqtasi, manba, ildiz.

Mehrobcha – buyumlarning chetini bezatish uchun engsiz mehrob shaklida ishlangan naqsh.

Mehrob – Mehrob tasvirini beruvchi naqsh; har xil naqsh va yozuvlar bilan bezatilgan taxmon.

Moq – oyga o`xshash naqsh.

Morpech – ilon izi naqsh.

Murakkab islami – elementlari bir-biriga chirmashib, navbat bilan boqlanuvchi naqsh.

Murakkab – islami va Garih elementlaridan iborat naqsh (gul bilan to`ldirilgan Garih).

Murakkab naqsh - almashinuvchi yoki takrorlanuvchi naqsh elementining kichiklashib yoki kattalashib borishi.

Naqsh – har xil buyumlar, mebellar va uylarga o`yib va bo`yab solinadigan gul.

Naqqosh – Uylar, har xil buyum va mebellarga o`yib ishlov beruvchi hamda rangli bo`yoqlar bilan bezatuvchi rassom.

Naqshi namoyon – bir joyda yaxlit ishlangan katta qajmdagi mehroblik naqshlarning bir turi.

Namoyon – ko`rinish, manzara, panno, guldasta shaklidagi naqsh.

Naqshi gulxan – naqsh elementi, alangani eslatadi. U Xorazm ustalari naqshlarida ko`p uchraydi.

No`xati chetan – naqsh kompozitsiyalarining chekkalariga ishlanadigan naqsh.

Ornament – arxitektura va amaliy san'at asarlaridagi asosiy elementlardan biri. U chiziqlar va ranglardan iborat bo`lib, bino va buyumlarning satqini bo`yash, chakichlash va o`yib ishlash yo`li bilan yaratiladi.

Obi – naqsh gulining chetidan, ba'zan bir naqshni ikkinchi naqshdan ajratish uchun tortiladigan suv.

Oyguil – oyga o`xshash doira shaklidagi naqsh.

Panjara – geometrik shakllardan tuzilgan naqshli panjara

Pargori – naqsh ishlashda aylanalarni chizib olish uchun qo`llaniladigan asbob, sirkul.

Pargori turunj – pargori bilan tuzilgan naqshning bir turi.

Patnis islami – kompozitsiya, patnis shaklini eslatuvchi markaziy turunj.

Panno – devor, ship satqining ornament bilan bezatilgan qismi.

Pargori Girih – pargor yordamida chizilgan egri chizikli qandasiy naqsh.

Ritm – naqsh, bezak elementlarining bir tekis takrorlanishi.

Rang kompozitsiyasi – bino yoki predmetlarni naqshlashda qo`llanadigan barcha ranglarning umumiy ko`rinishi.

Ranglar garmoniyasi – ranglarning bir-biriga muvofiqligi.

Rax – qirra.

Sebarg – uchbargdan iborat naqsh.

Seraftor – uch chizikli jiyak naqshi.

Simmetriya – grekcha so`z bo`lib, o`lchovlarning bir-biriga mos kelishi va mutanosiblik, tenglik ma'nosini bildiradi.

Sirtmoq – bandi rumiy, boftaning bir turi.

Sovuq ranglar – ko`kka yaqin ranglar.

Stilizatsiya – narsaning rasmi, rangi va shakli kabilarni dekorativ tarzda umumlashtirish; dekorativ-amaliy san'atda, ayniqsa tabiat shakllari ko`proq umumlashtirib qo`llaniladi.

Tanob – naqshda asosiy shakl beruvchi chiziq. Islami naqshida o`simlik poyasi qisoblanadi.

Bosh tanob – kompozitsiya asosini tashkil etuvchi chiziq.

Yordamchi tanob – ikkinchi darajali chiziq.

qo`sh tanob – qo`sh chizikli tanob.

Tanobi – naqsh elementi.

Tilla rang – sarqish tusdagi kukunsimon bo`yoq.

Turunji – qadimiy naqsh, o`rama nonga o`xshaydi, yurakning ramziy ifodasi.

Xromatik ranglar – ranglarning toni yoki to`qligi o`zgaradigan kontrastlar xili (bunga qizil, pushti, sariq, yashil, ko`k va boshqa ranglar kiradi).

Chekma gul – naqshlarning orasiga chekib solingan dona-dona gullar; bu ko`pincha nuqtalardan ham iborat bo`ladi.

Chor islimi – to`rt tomonga yo`nalgan turli-tuman chiziqlardan iborat naqsh.

Chorsar – to`rtburchak geometrik shakllardan tuzilgan naqsh turi.

Shashi qo`shstanob – olti burchakli qo`sh chiziqli Girih.

Shashdona – olti shaklli geometrik elementlardan tuzilgan davra naqsh.

Shingila – uzum donasiga o`xshagan o`simliksimon naqsh.

Shkiftlar – asosiy elementlarni bir-biri bilan boqlaydigan oraliq elementlar.

Boftalarga o`xshaydi.

Shox – o`simliksimon tasvir.

Shoxbarg – naqsh elementi.

Yakka raftor – bir yo`nalishdagi figurali naqsh.

Yakka barg – islimi naqshi uchun ishlatiluvchi maxsus barg (naqshi).

qo`sh zanjira – ikki yo`lli, ensiz, geometrik elementlardan tuzilgan naqsh, buyumlarning chetiga ishlanadi.

qo`sh Girih – murakkab geometrik shakllardan tuzilgan panjara naqsh.

quncha – naqsh elementi, qunchadan olingan.

qovzak – uy va ayvon shiplarining ayrim joylarini bezatish maqsadida yarim doira shaklida chuqur o`yib ishlangan joy.

hoshiya – har xil buyumlarning chetiga ishlanadigan ensiz yo`lli naqsh.

V. Adabiyotlar

1. Azimov I. O`zbekiston naqshu nigori nazoratlari. – T.: G.Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
2. Axloq va odobga oid hadis namunalari. – T.: “Fan”, 1991.
3. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yoqoch o`ymakorligiga oid adabiyotlarning izoqli lugati. – T.: “Mehnat”, 1991.
4. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezak san'ati, - T.: “Mehnat”, 1991.
5. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'atdan qisqacha izoqli lugat. – T.: qomuslar bosh taqririyati. 1992.
6. Bulatov S.S.Dadashev L. Naqsh alifbosi. – T.: “Cho`lpon”, 1999.
7. Zoqidov P. Sh. Zeb ichra ziynat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985.
8. Zoqidov P. Sh. Farqona naqshi. (Xalq ustasi Saidaqmad Norqo`ziev albomidan) – T.: O`z adabiy nashr, 1960.
9. Mirzaxmedov M.K. Boshlanqich badiiy naqsh ishlash metodikasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
10. Nabiev M. Rangshunoslik . – T.: O`qituvchi, 1995.
11. Ochiq osmon ostidagi muzey (Tuz. G.A.Pugachenkova) – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
12. Hasanov R. Boshlanqich sinflarda naqsh chizishga o`rgatish metodikasi. – T.: O`qituvchi, 1972.
13. Qurbonov T. Odobnoma – T.: O`qituvchi, 1991.
14. Qosimov H. Naqqoshlik – T.: O`qituvchi. 1990.
15. Qosimov H. Naqqoshlik – T.: O`qituvchi. 1982.
16. O`zbekiston Respublikasining “Ta'lim to`qrisida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” to`qrisidagi qonun. – T.: O`zbekiston. 1998.

Internet saytlari.

- 1.www.google.uz
- 2.www.gov.uz
- 3.Ziyonet.uz
- 4.www.uza.uz

VI. ILOVALAR



Ahadova Nafisa Shodi qizi ish jarayonida



Ahadova Nafisa Shodi qizi ish jarayonida



Ahadova Nafisa Shodi qizi ilmiy raxbari bilan ish jarayonida



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishi



Ahadova Nafisa Shodi qizining amaliy ishlari

